

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI**

**“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI**

**ABDUSAMATOVA(LUTFULLAYEVA) GULCHEHRA SHUXRATILLA  
QIZI**

**«TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI  
SAMARALI BOSHQARISH»**

“Moliyaviy menejment” fakulteti  
dekani i.f.n. O.T.Astanakulov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2015 y.

**«HIMOYAGA RUXSAT  
ETILDI»**

«Menejment va marketing»  
kafedra mudiri i.f.n. Jumaev O.T.  
« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ **2015**

**Bitiruvchi :**

5340200 -“Menejment”- ta'lim yo'nalishi  
4 -kurs talabasi  
Abdusamatova Gulchehra Shuhratilla qizi

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_  
i.f.n. Jumaev O.T.

**TOSHKENT - 2015**

## MUNDARIJA

	bet
<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>6</b>
1.1 Tijorat banklarining resurslari tushunchasi va ularning manbalari.....	6
1.2 Tijorat banklarida passivlarni boshqarish metodologiyasi.....	14
1.3 Tijorat banklari aktivlarini boshqarish yo'nalishlari.....	19
<b>II BOB “XALQ BANK”INING ASOSIY MOLIYAVIY RESURSLAR TAHLILI.....</b>	<b>27</b>
2.1 DT “Xalq bank”ning rivojlanish tarixi va boshqaruv tuzilishi.....	27
2.2 DT “Xalq banki” Chilonzor filialining asosiy moliyaviy resurslari tahlili.....	33
2.3 «Xalq bank»da personalni boshqarishning amaldagi holati tahlili.....	43
<b>III BOB MAMLAKATIMIZDA BANK TIZIMINI MODERNIZASIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....</b>	<b>47</b>
3.1 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda bank tizimining rivojlanishi.....	47
3.2 Rivojlangan va MDH ga a'zo mamlakatlar bank amaliyotida resurslarni jalb etishning taqqoslama tahlili.....	50
<b>XULOSA .....</b>	<b>60</b>
<b>FOYDALANILGA ADABIYOTLA RO'XATI.....</b>	<b>62</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri hisoblangan bank tizimini isloh qilishda jahon andozalariga mos keluvchi ikki bo'g'inli zamonaviy bank tizimini bosqichma-bosqich yaratishga asosiy e'tibor qaratildi. Milliy bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlariga asosan tijorat banklari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini faollashtirish va kuchaytirish maqsadida ularning faoliyati universallashtirildi va xususiy banklar faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida tijorat banklari muassalarining keng tarmoqqa ega bo'layotganligi, o'z navbatida, mijozlarga sifatli bank xizmatlari ko'rsatish, ularning bank xizmati o'rtasidagi raqobat muhitini kuchayishiga imkon bermoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda o'z faoliyatini boshlagan nobank tashkilotlari hisoblangan kredit uyushmalari va lombardlar bank xizmatlari bozorida tijorat banklariga kuchli raqobatni yuzaga chiqarmoqdalar. So'nggi yillarda vujudga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bank tizimiga bo'lgan e'tiborni oshirishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash masalasiga katta e'tibor berilib kelmoqda va bu o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Biroq, hozirgi kunda bu borada o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjuddir. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijalariga hamda undagi bank tizimi faoliyatiga diqqat e'tiborini qaratgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tdilar: ".....bank xizmatlaridan foydalanish darajasini alohida e'tirof etish o'rinlidir. Masalan, yurtimizda har yuz ming katta yoshdagi aholiga 49,7 ta bank muassasasi to'g'ri kelayotgani, har ming kishi nomiga 1 ming 28 ta bank hisob raqami ochilgani xalqaro normalar bo'yicha «yuqori» degan baho ko'rsatkichiga mos keladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda bank tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Buni hattoki boshqa davlatlar ham tan olishmoqda. Bu borada yurtboshimiz I. A. Karimov shunday dedi: "Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014-yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi."<sup>1</sup> Shu o'rinda mamlakatimizdagi deyarli barcha tijorat banklari yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan «barqaror» reyting darajasini olishga erishganini mamnuniyat bilan qayd etishni istardim.<sup>2</sup>". Bank tizimidagi islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib bank xizmatlari sifati va madaniyatini yuksaltirgan holda tijorat banklari va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni "mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun" tamoyili asosida tashkil etishda marketing tizimini ahamiyati kattadir. Bu omil mamlakatimiz tijorat banklarida marketing faoliyatini rivojlantirish, undagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilishning ilmiy asoslangan yo'llarini ishlab chiqish mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Ishning asosiy maqsadi – mamlakatimiz bank xizmatlari bozorida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining moliyaviy resurslarini tahlil qilish va uni rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-bank marketingini mohiyati, tamoyillari va uning o'ziga xos

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 19.01.2015-y.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2015 yil 7 yanvar, № 14.

xususiyatlarini o'rganish va tahlil etish;

-tijorat banklarida aktiv – passiv operatsiyalarining mohiyatini ochib berish va ularni marketing nuqtai nazaridan tahlil etish;

-tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan aktiv va passiv operatsiyalarining mohiyatini ochib berish va ularni marketing nuqtai nazaridan tahlil etish;

-mamlakatimiz bank xizmatlari bozoridagi tijorat banklarida marketing faoliyatini yanada rivojlantirish istiqbollari yuzasidan ilmiy asoslangan amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat Tijorat "Xalq bank" tanlandi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** bo'lib, tijorat banklarining moliyaviy resurslari tarkibi va unda sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni samarali boshqarish hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati.** Tijorat banklari faoliyatida tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan aktiv va passiv operatsiyalarining mohiyatini, ularni baholash va boshqarish bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab qilish, nazorat qilish, ularni strategiyasini ishlab chiqish usullari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar doirasini kengaytiradi. Banklarda qimmatli qog'ozlar bilan aktiv va passiv operatsiyalarining takomillashtirish masalalari xorijiy olimlardan F.Night, J.Keyns, Sh.Hefferman, J.Hull, S.Rouz, Ye.Jukov, G.Korobova, T.Kox, O.Lavrushin, R.Cantillon kabi olimlarni asarlaridagi ma'lumotlar atroflicha o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini boyitish maqsadida Sh.Abdullayeva, Y.Abdullayev, T.Qoraliyev, P.Saidxodjayev, I.Ismatullayev, F.Nasriddinov kabilarning ilmiy izlanishlar va o'quv adabiyotlaridan keng foydalanilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishining tuzilmasi kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# I BOB TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1 Tijorat banklarining resurslari tushunchasi va ularning manbalari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida tijorat banklari resurslari va ularning manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining resurs bazasi, makroiqtisodiy omil sifatida ularning likvidligini ta'minlashga va to'lov qobiliyatini mustahkamlashga bevosita ta'sir qiladi. Iqtisodiyotni boshqarishning markazdan turib rejalashtirish tizimida mijozlarning banklarga biriktirib qo'yilishi, banklarning esa hisob–kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirishda monopol huquqqa egaligi, ularning xarajat va daromadlari miqdorining yuqoridan belgilab berilganligi tufayli banklar moliyaviy resurslarni jalb qilish, bank xizmatlari hajmini kengaytirish va ularni takomillashtirib borishdan manfaatdor emas edi.

O'zbekistonda bozor mexanizmlarining tobora keng joriy etilishi sababli bank resurslarini jalb qilishni markazdan rejalashtirish sharoitida qo'llanilgan rejali usullar amalda o'zining ahamiyatini yo'qotdi. Natijada, tijorat banklarida moliyaviy jihatdan barqaror va arzon resurs bazasini yaratish masalasi asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Bizning nazarimizda, tijorat banklarining moliyaviy resurslari xususida so'z yuritishdan oldin, resurslarning iqtisodiy mohiyatini aniqlab olish juda muhim.

Xorijiy va mahalliy iqtisodchilar «bank resurslari» tushunchasini mustaqil tahlil ob'ekti sifatida e'tirof etishmaydi. Xususan, xorijlik iqtisodchilar resurslarni shakllantirishning asosiy ob'ekti sifatida bankning passiv operatsiyalarining natijasi deb ta'kidlashadi<sup>3</sup>.

Professor A.G.Gryaznova, resurslarni – (inglizcha resources, fran. ressources)– mablag', qimmatlilik, zaxirada, imkoniyat, mablag'lar manbai,

---

<sup>3</sup> Курочкин А.В. Ресурсы коммерческого банка и оптимизация их структуры. Автоферат дисс. На соискание ученой степени к.э.н. –М.: 2000. С. 6.

daromadlar sifatida tavsiflaydi<sup>4</sup>. Bank resurslari daromad resurslarga nisbatan ikkilamchi bo'lib, aniq tarmoqdagi moliyaviy resurslarning manbasi, shakllanishi va joylashishi xususida tadqiqot yuritishni talab etadi.

Xorijda chop etilgan Moliya–kredit lug'atida «Bank resurslari – banklarning ixtiyorida bo'lgan va ular tomonidan kredit va boshqa aktiv operatsiyalarda foydalaniladigan mablag'larning yig'indisidir» deb talqin etilgan.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklarining resurslariga beriladigan ta'riflarda ularning shakllanish manbasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki bozor munosabatlari sharoitida bank resurslarini shakllantirish, ya'ni ularning manbalarini izlab topish birlamchi vazifaga aylanib bormoqda.

Biz, bank resurslari va umuman resurslarning iqtisodiy mohiyatini atroflicha o'rganish asosida: «Tijorat banklari resurslari ma'lum shartlar asosida jalb qilingan va bankning o'z mablag'laridan tashkil topib, bank daromadini shakllantirish maqsadida aktiv operatsiyalarga yo'naltirilgan moliyaviy manba hisoblanadi» –degan mualliflik ta'rifini shakllantirdik.

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda banklarning yetarli resurslarga ega bo'lishi o'ta dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, bankning yetarli resurslarga ega bo'lishi uning passiv operatsiyalarini samarali tashkil etish va boshqarishni talab etadi.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda asosiy e'tibor bank balansi passividagi mablag'larning manbalariga qaratiladi. Ushbu mablag'lar ikkita yirik guruhga majburiyatlar va kapitalga bo'linadi.

Majburiyatlar – bank tomonidan jalb etilgan mablag'lar hisobidan, kapital esa bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag'larning barqaror manbalar hisobidan shakllantirilishi tijorat banklarining samarali ishlashini va iqtisodiy jihatdan baquvvatligini ta'minlaydi.

Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar tashkil

---

<sup>4</sup> Финансово–кредитный энциклопедический словарь. Под ред. д.э.н. проф. А.Г.Грязнова. –М.: «ФиС», 2002. С.844.

etib, ular 85–90 foizdan iborat bo‘ladi. Majburiyatlarni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab barqaror va nobarqaror, ular uchun to‘lanadigan xarajatlar qiymatidan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag‘larga ajratish mumkin.

Tijorat banklarining ikkinchi yirik mablag‘lari manbasini ularning kapitali tashkil etadi. Bank kapitali tarkibida ustav kapitalining tashkil topishi va barqarorligi jihatidan muhim moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Bank kapitalini boshqarishda asosiy e‘tibor ularning barqaror moliyaviy mablag‘lar hisobidan shakllanishiga va yetarliligiga qaratiladi.

Tijorat banklarning foydasidan ustav kapitaliga, zaxira fondiga, imtiyozli kreditlash fondiga, moddiy rag‘batlantirish fondi va boshqa fondlarga ajratmalar amalga oshiriladi. Banklarning ushbu fondlariga ajratmalarning miqdori va muddati bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining qaroriga asosan, belgilanadi. Bankning fondlari ichida asosiy o‘rinni ustav kapitali egallaydi. Tijorat banklarining ustav kapitali bank asosiy kapitali tarkibidagi maxsus zaxiralar, taqsimlanmagan foyda va emission daromadlarga qaraganda muddati va manbai jihatidan barqaror hisoblanadi. Tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdori bankning dastlabki faoliyatini boshlagan davridayoq shakllantiriladi.

Tijorat banklari kapitalining minimal miqdori bank aktiv operatsiyalari hajmining ortishi va iqtisodiyotda yuz berayotgan inflyasiyaning salbiy ta‘siri tufayli oshib boradi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari kapitalining etarligini hisoblashda har–xil metodikalaridan foydalanadi. Bank kapitali yetarliligining u yoki bu metodika bilan hisoblanishi uning yetarliligiga qo‘yilgan talablarning bajarilishi jihatidan har xil natijalarni beradi.

Depozit operatsiyalar. Depozit operatsiyalar – banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko‘ra muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalardir<sup>5</sup>.

Yaqin kunlarga, banklar tomonidan depozit operatsiyalariga yetarli

---

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonun hujjatlari to‘plami. T: “O‘zbekiston” 2003, 86-bet.

ravishda e'tibor qaratilmas edi. Buning asosiy sabablari:

–birinchidan, bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning taklifdan birmuncha yuqoriligi;

–ikkinchidan, inflyasiya darajasining nisbatan balandligi;

–uchinchidan, arzon moliyaviy resurslarning mavjudligidir. Ushbu holat tijorat banklarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ortiqcha qiyinchiliklarsiz qondirish bilan birga, ularga yetarli miqdorda o'z foydasini shakllantirish imkoniyatini ham berdi. Ammo aholining banklarga omonatlar qo'yish istagining pasayib ketganligi, pul mablag'larini kredit muassasalari tizimidan tashqarida aylanishini kamaytirish lozimligi, keyingi yillarda inflyasiya darajasining pasayishi, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkalarining muntazam ravishda kamayib borishi tijorat banklaridan depozit operatsiyalarning amaliy ahamiyatini oshirishni talab etmoqda.

Mablag'larni tashkil topish manbalari jihatidan qimmatli yoki arzon mablag'lar guruhiga ajratish mumkin. Bu yerda asosiy e'tibor depozit operatsiyalari natijasida vujudga keladigan mablag'larga qaratilib, yuqorida qayd etilgan nisbatan barqaror mablag'lar tijorat banklari uchun qimmat resurs manbalarini tashkil etadi. Arzon resurs mablag'lari turkumiga esa o'z-o'zidan aniqki nisbatan nobarqaror mablag'lar kiradi.

Muddatli depozitlarga qo'yiladigan mablag'larni qaytarib olish muddati oldindan kelishiladi. Ushbu depozit turining nomidan ham ma'lumki, depozit mablag'lar nisbatan uzoqroq muddatga qo'yilib ularning muddati kamida bir oyni tashkil etishi lozim. O'z navbatida banklar, ushbu depozit turi bo'yicha nisbatan yuqori foiz to'lovlarini to'laydi. Bank mazkur depozitga muddati tugaguncha saqlash uchun va oldindan ogohlantirish yo'li bilan muddati tugamasdan qaytarib berish haqida omonatchi bilan depozit shartnomasini tuzishi mumkin. Birinchi holatdagi depozit turida, bank depozit shartnomasida kelishilgan muddat tugaguncha omonatchining mablag'idan erkin foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Muddati tugagandan keyin omonatchi tomonidan ushbu

mablagʻ talab qilib olinmasa, kelgusida ushbu hisobvaraqa talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqa tarzida ishlaydi. Odatda, ushbu depozitlar boʻyicha muddatlar har xil boʻlib, mablagʻlar qancha koʻp saqlansa, ularning foiz toʻlovlari shunchalik yuqori boʻladi. Albatta, bu yerda pul bozoridagi resurslarning taklifi, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish hisob stavkasi miqdori asosiy rol oʻynaydi. Shunga asosan, tijorat banklari depozit siyosatini oʻrnatadi.

Muddatli depozitlar oldindan ogohlantirish asosida muddatidan oldin bankdan qaytarib olinishi ham mumkin. Bunda bank mijozga depozit mablagʻini oldindan qaytarib olganligi uchun jarima tarzida shartnomada kelishilgan foiz toʻlovlarini toʻlamaslik huquqiga ega boʻladi.

Jismoniy shaxslar oʻrtasida omonatlarning eng rivojlangan turi bu jamgʻarma depozitlar hisoblanadi. Jamgʻarmaning ushbu turida bank omonatchiga uning mablagʻining harakati, qoldigʻi va unga hisoblangan foizlar haqidagi maʼlumotni aks ettiruvchi jamgʻarma daftarchasini beradi. Jamgʻarma depozitlarining asosiy turi sifatida rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida keng qoʻllanilayotgan depozit sertifikatlarini koʻrsatish mumkin.

Hozirgi kunda respublikamiz tijorat banklari amaliyotida ham depozit sertifikatlari joriy etilib bank resurslarining manbalarini shakllantirishda foydalanilmoqda. Ushbu koʻrsatkich 2006 yil 1 yanvar holatiga jami 21,3 mlrd soʻm yoki jami aktivlar tarkibida 0,3 foizni tashkil etgan<sup>6</sup>. Depozit sertifikatlarining oʻziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular bankning haqiqatda ham maʼlum miqdordagi mablagʻni bankka qoʻyganligi haqida mijozga bergan yozma tasdiqnomasini anglatadi. Eng asosiysi depozit sertifikatlari garov sifatida banklar tomonidan qabul qilinadi. Depozit sertifikatlari boʻyicha foizlar miqdori depozit summasining hajmi, muddati, shuningdek, iqtisodiyotdagi inflyasiya darajasiga bogʻliq.

Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozning topshirigʻiga binoan

---

<sup>6</sup> Tijorat banklarining shu davrdagi hisobotlaridan muallif tominidan yigʻildi.

amalgam oshiriladigan akkreditiv operatsiyalarning summasi alohida 22602– “Akkreditiv bo‘yicha mijozlarning depozitlar” hisobvarag‘ida deponentlanadi. Mijozning akkreditiv arizasiga asosan, bankda maxsus hisobvarag‘ida deponentlangan mablag‘, bank tomonidan akkreditiv arizasida ko‘rsatilgan muddat ichida kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatini beradi. Chunki mijoz akkreditivga ariza bergandan va tovar sotuvchiga xabar yetkazilganidan so‘ng o‘zaro shartnomada kelishilgan muddat ichida sotuvchi tovarni jo‘natadi va bankka tegishli hujjatlarni taqdim etadi.

Yuridik shaxslardan olingan kredit resurslar. Tijorat banklarining resurslarga bo‘lgan ehtiyoji depozit operatsiyalari natijasida to‘liq qondirilmaganda ular mamlakat yoki xalqaro moliya bozoriga, Markaziy bankka va banklararo pul resurslari bozoriga murojaat qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida moliya bozori va banklararo pul resurslari bozorlari orqali banklarning katta miqdorda moliyaviy resurslarni jalb etishi amaliyotda o‘zining ijobiy natijasini topgan. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining resurslari tarkibida qimmatli qog‘ozlarning ulushi 20–25 foizni tashkil etadi. Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarida ushbu ko‘rsatkich 2003–2004 yillarda 10–12 foizni tashkil etgan<sup>7</sup>, O‘zbekiston tijorat banklarida shu davrda 0,3–1,0 foizdan iborat bo‘lgan<sup>8</sup>.

Bank resurslarini qimmatli qog‘ozlar hisobidan shakllantirishning asosiy mezoni mamlakatda pul bozorlarining, asosan, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Mazkur masalaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov alohida e‘tibor qaratib, shunday deb ta’kidladi: “Takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi, qachonki, qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozori to‘la ishga tushsa, fond birjasi tom ma’noda faoliyat ko‘rsatsa, qachonki, aksiyalar qiymati muntazam e‘lon qilib borilsa, alohida aksiyalarni sotib olishga ishtiyoq va intilish tug‘ilsa, aksiyalarning o‘zi

---

<sup>7</sup> Шпрингиль В. Роль рынка ценных бумаг в жизни российских банков, или несколько слов о банковской отчетности. //Рынок ценных бумаг. №19(271), 2004. С.44–45.

<sup>8</sup> Tijorat banklarining shu davrdagi hisobotlaridan muallif tominidan yig‘ildi.

shunchaki oddiy qog‘oz bo‘lib qolmasdan, haqiqiy qimmatli qog‘ozga aylanib, o‘z egalari uchun muhim daromad manbai bo‘lsagina bunga erishish mumkin”<sup>9</sup>.

Tijorat banklarining qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini Markaziy bankning krediti orqali qondirishida qayta moliyalash stavkasining miqdori bevosita ta‘sir etadi. Chunki Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi uning pul–kredit siyosatini yuritishning asosiy usullaridan biri bo‘lib, uning darajasining past yoki yuqori bo‘lishi muomaladagi tovar massasi va pul massasi o‘rtasidagi mutanosiblikka bog‘liq. Agar muomalada pul massasining miqdori tovar massasiga nisbatan mo‘ljaldagidan oshadigan bo‘lsa, unday holda Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini oshirish orqali tijorat banklarining markazlashgan kredit resurslarini olishga bo‘lgan manfaatini cheklab qo‘yadi va aksincha.

Banklararo pul resurslari bozori moliya bozorining asosiy segmentlaridan biri hisoblanib, tijorat banklariga vaqtincha bo‘sh mablag‘laridan samarali foydalanish va qo‘shimcha moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini zudlik bilan qondirishga imkoniyat yaratadi. Banklararo pul resurslari bozorida qisqa muddatli kredit resurslar sifatida ishtirok etayotgan mablag‘lar butun bank tizimidagi mavjud bo‘sh mablag‘lar hajmiga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Chunki tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar birinchisidan ikkinchisiga o‘tish orqali ularning Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘ining umumiy hajmi o‘zgarishsiz qoladi.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining banklararo pul resurslari bozorining ishlashida quyidagi asosiy jihatlarni ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, yirik tijorat banklari ushbu bozorda asosan, o‘z likvidligini ta‘minlash maqsadida yoki bo‘sh pul mablag‘larini joylashtirish maqsadida ishtirok etadi. Bo‘sh pul mablag‘larini joylashtirish asosida ular Markaziy

---

<sup>9</sup>“Xalq so‘zi” gazetasi 2004 yil 10 fevral 7 soni

bankka to‘lanadigan majburiy zaxiralar hajmini kamaytiradi va juda yuqori bo‘lmasada, ma’lum miqdorda daromad oladi.

Ikkinchidan, yirik tijorat banklarining filiallari asosan, resurslarni bosh bankning topshirig‘iga ko‘ra, mavjud bo‘sh mablag‘larni vaqtinchalik bir–biriga berib turadi. Shu tufayli, ular ushbu bozor xizmatlaridan foydalanishga ehtiyoj sezmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining sa’y harakatlari natijasida 2003 yildan yirik tijorat banklarining respublika bo‘yicha yagona vakillik hisobvaraqa-siga o‘tishi ular o‘rtasida resurslardan samarali foydalanishning imkoniyatini berdi.

Uchinchidan, kichik banklarning joriy operatsiyalari jarayonida qo‘shimcha resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish zaruriyati. Odatda, kichik va o‘rta banklarda vaqtincha bo‘sh moliyaviy resurslarning hajmi yirik tijorat banklariga nisbatan sezilarli darajada past bo‘ladi. Mijozlarning iqtisodiy jihatdan samarali kredit loyihalarni taklif etishi ularni banklararo pul resurslari bozoriga murojaat qilishga undaydi. Tijorat banklarining banklararo pul resurslari bozorining bir maromda ishlashida, uning ishonchligi, tezkorligi va iqtisodiy jihatdan barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a‘zo mamlakatlarda banklararo pul resurslari bozori 1990 yillarning o‘rtalaridan boshlab shakllana boshladi.

O‘zbekistonda banklararo pul resurslari bozoridagi operatsiyalar Markaziy bank tomonidan 1996 yil 20 aprelda tasdiqlangan 41–sonli «O‘zbekiston Respublikasida kredit resurslarni auksionini o‘tkazish tartibi»ga asosan amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasi bazasida Birja axborotlar diling tizimi orqali qisqa muddatlarda amalga oshiriladi.

Bizning nazarimizda, banklararo pul resurslari bozorini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi asosiy tendensiyalar ushbu bozorni to‘liq quvvat bilan ishlashiga iqtisodiy sharoit tug‘dirmayapti.

Birinchidan – tijorat banklari ushbu bozorga erkin ravishda qatnashish huquqiga ega emasligi. Tijorat banklari kredit resurslari auksionida qatnashishi uchun Markaziy bankning 1996 yil 20 aprelda tasdiqlangan 41–sonli me’yoriy

hujjatida oʻrnatilgan talablarga javob berishi va uning ruxsatini olishi lozim. Kredit resurslari auksionidan kredit olgan bank ushbu qarzni vaqtda toʻlay olmasa Markaziy bank uning vakillik hisobaragʻidan kredit beruvchi bankning hisobiga oʻtkazib beradi.

Bizning nazarimizda, tijorat banklarining ushbu bozorda qatnashishiga qoʻyilgan talablar banklararo pul resurslari bozori haqidagi tartibda belgilab qoʻyilishi lozim.

Ikkinchidan – tijorat banklarining qoʻshimcha resurslarga boʻlgan ehtiyojini banklararo pul resurslari bozorida zudlik bilan qondirilmaligi. Chunki, banklarning banklararo pul resurslari bozorida mablagʻlarni olish jarayoni juda murakkab. Banklararo kreditlarni taqdim etish yoki uni olish uchun kamida 6 kun zarur boʻladi. Buning natijasida banklarda banklararo kreditlarni oldi–berdisini birjadan tashqarida oʻtkazishga moyillik tugʻiladi..

Uchinchidan – banklararo pul resurslari bozoriga talab va taklif etilayotgan resurslar va ularning shartlari toʻgʻrisida maʼlumotning yetishmasligi. Bu tijorat banklari qarz oluvchi bankning moliyaviy holati, likvidlik darajasini aniq baholashning imkoniyatini bermaydi.

Fikrimizcha, banklararo pul resurslari bozorini rivojlantirish uchun banklararo kreditning oʻrtacha foiz stavkasining doimiy ishlaydigan mexanizmini shakllantirish, banklararo kredit operatsiyalarni tartibga soladigan hujjatlar toʻplamini ishlab chiqish, banklararo kredit operatsiyalariga qatnashuvchi banklarni istagan paytda bozorga kirishini taʼminlaydigan texnik sharoitini va dasturiy taʼminotini tashkil etish, banklarni banklararo pul resurslari bozori haqida maʼlumot olishini taʼminlash zarur.

## **1.2 Tijorat banklarida passivlarni boshqarish metodologiyasi**

Bank resurslarini shakllantirish bilan bogʻliq boʻlgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv-passiv hisob raqamidagi pul mablagʻlarining

salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslarini tashkil qiladi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosan to'rtta shakli mavjud:

1. Qimmatbaho qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish;
2. Foyda hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
3. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish;
4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o'z mablag'lari yuzaga keladi va qolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarning ikkinchi qismi jalb qilingan resurslar yuzaga keladi.

Banklarning o'z mablag'lariga bankning ustav kapitali, rezerv kapitali, maxsus fondlar, modtsiy rag'batlantirshp fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o'z mablag'lariga to'g'ri keladi.

Banklarning o'z mablag'lari ichida asosiy o'rinni bankning o'z kapitali egallaydi. Bankning o'z kapitali tarkibiga biz yuqorida keltirib o'tganlarning bir qismi, ya'ni ustav kapital, risklarni qoplash uchun tashkil qilingan rezerv fond, taqsimlanmagan foyda kiradi. Banklarning o'z kapitali bank kreditorlarining manfaatini himoya qilish, bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash, bank faoliyatini boshqarish kabi funktsiyalarni bajaradi.

Bankning ustav kapitali summasi bank ustavida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Banklarni tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham har xil tashkil topadi. Agar bank aktsiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo'lsa, ustav kapitali yoki fondi aktsiyalar chiqarshi va joylashtirish yo'li orqali tashkil topadi. Banklarning

ustav kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi.

Bankning ustav kapitali uning balansining passivda ko'rsatiladi. Ustav fondi summasining oshirilishi bank aksionerlari tomonidan umumiy yig'ilishda hal qilinadi.

Banklarning aksioner kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin. Bular: a) o'z aksioner kapitali, bu kapital oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan, taqsimlanmagan foyda hisobidan yuzaga keladi; b) har xil ko'zda tutilmagan xarajatlarni va to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun tashkil qilingan rezervlar; c) bankning uzoq muddatli majburiyatlari (uzoq muddatli veksel va obligatsiyalar) bo'lishi mumkin.

Banklarning rezerv kapitali yoki rezerv fondi foydadan ajratmalar xisobiga hosil bo'ladi va ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatbaho qog'ozlar kursining tushishi natijasidagi yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallangan.

Taqsimlanmagan foyda - rezerv fondiga ajratmalar va deidentlar to'langanidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir.

Banklarda tahlil kredit portfeli, qimmatli qog'ozlar, investitsiya qo'yilmalari monitoringi ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Tahlil ma'lumotlariga asoslanib, banklarda tavakkalchiliklarni boshqarish kontseptsiyasini ishlab chiqish, mijozlar manfaatlari asosida bank ichki siyosatlarini takomillashtirish kabi bir qator masalalarni hal etish mumkin.

Bank menejmentida muvofiqlashtirish jarayonini tashkil etish tashqi va ichki uslublarga ajratiladi. Muvofiqlashtirish uslubining zarurati bank tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning aksiyadorlar, mijozlar va omonatchilar manfaatlarini himoyalashga yo'naltirilishi bilan izohlanadi.

Tashqi muvofiqlashtirish bank faoliyatining qonunchilikda belgilangan talablar va me'yorlar asosida tashkil etilishini ta'minlashni ifodalaydi.

Bank ichki muvofiqlashtirish esa asosiy e'tiborni bank bo'limlari o'rtasida me'yoriy hujjatlar qoidalari, o'rnatilgan me'yorlar doirasida ish tashkil etilishiga hamda bank oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda bank bo'limlari faoliyatini

muvoqlashtirishga qaratadi va bank faoliyati sifatini oshirish imkonini beruvchi ichki me'yoriy hujjatlar, uslubiy ko'rsatma va tavsiyanomalar ishlab chiqish, bank tavakkalchiliklari ta'sirini cheklash bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularning bank mas'ul bo'linmalari tomonidan hamkorlikda amalga oshirilishini ta'minlash, bankda malakali xodimlar tayyorlash siyosatini yuritish, bank ichki nazorat mexanizmini takomillashtirish borasidagi ishlarni muvoqlashtirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy bank menejmentida maqbul nazorat tizimini shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Mazkur nazorat tizimi tashqi va ichki ko'rinishlarda tashkil etiladi. Tashqi nazorat bevosita Markaziy bank tomonidan har yili rejali tekshirishlar o'tkazish, banklar tomonidan taqdim qilinadigan hisobotlar bo'yicha belgilangan iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinishini tizimli nazorat qilish hamda tashqi auditorlik kompaniyalari tomonidan bank tizimining barqarorligiga baho berish orqali amalga oshiriladi. Ichki nazorat tizimi esa bank kengashining vakili hisoblangan ichki audit xizmati va bank boshqaruvi tomonidan tashkil etiladi.

Maxsus operatsiyalarni o'tkazishga qadar sof foyda ko'rsatkichi, odatiy daromad manbalari, ya'ni kredit va investitsiyalardan olingan daromadlar hamda boshqa xizmatlar uchun komission haqning bankning jami aktivlariga nisbatini anglatadi. Noan'anaviy yoki favqulodda moddalar (bank mulki va uskunalari sotish, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar yoki zararlar) odatda analitiklar tomonidan bank daromadliligi ko'rsatkichlaridan chegiriladi. Nihoyat, bir aktsiyaga to'g'ri keluvchi sof foyda ko'rsatkichi bankning asosiy egalari bo'lgan aktsionerlar foydasiga to'lovlarni amalga oshirilishi holatini ko'rsatadi.

Shuningdek, bankning daromadlilik ko'rsatkichlaridan yana biri jami operatsion foydaning jami aktivlarga nisbati sifatida aniqlangan operatsion foyda marjasi hisoblanadi. Daromadlilikning ushbu ko'rsatkichi ikki qismga bo'linishi mumkin – aktivlar bo'yicha o'rtacha foizli daromad va aktivlar bo'yicha o'rtacha foizsiz daromadlar. Oxirgi element turli xizmatlar (masalan,

xalqaro pul o'tkazmalari) ko'rsatishdan olingan komission mukofot evaziga tashkil topadi.

Kreditlar va boshqa daromadli aktivlar bozorida raqobatning keskinlashuvi va ko'pgina kreditlarning «umidsiz» sifatida baholanishi oqibatida, juda ko'p banklar komission mukofot shaklidagi foizsiz daromadlarni oshirishga katta e'tibor bilan qarasha boshlashdi. Bunday mukofotlar jami foyda miqdorining oshishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida aktsionerlarga to'lovlarni ko'paytiradi. Bundan tashqari bank rahbarlari daromad keltirmaydigan aktivlarga (masalan, kassadagi naqd pul, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar) yo'naltirilgan resurslar hajmini kamaytirishga harakat qilishmoqda. Daromad keltirmaydigan aktivlarning nisbiy muhimlik darajasini (kreditlar va qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ko'rinishidagi to'g'ridan – to'g'ri daromad keltiruvchi aktivlarga taqqoslangan holda) aniqlashga yordam beruvchi ko'rsatkichlardan biri – daromad bazasi ko'rsatkichi hisoblanadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$\begin{aligned} \text{Aktivlarning daromad bazasi} &= \text{Daromad keltiruvchi aktivlar} / \text{Jami aktivlar} \\ &= (\text{Kreditlar} + \text{Lizing} + \text{Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar}) / \text{Jami aktivlar} = \\ &= (\text{Jami aktivlar} - \text{Daromad keltirmaydigan aktivlar}) / \text{Jami aktivlar} \end{aligned}$$

Daromad bazasi kamayib borayotgan bank rahbariyati va xodimlari mavjud daromad bazasini saqlab qolish uchun faol ish olib borishlari zarur bo'ladi.

Daromadlilikning qo'shimcha formulalari. Bank qanchalik darajada samarali faoliyat ko'rsatishini tahlil qilishda daromadlilikning ba'zi ko'rsatkichlarini qismlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Masalan, hozirgi paytda keng ishlatilayotgan ROE va ROA ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ko'rish qiyin emas. Ikkalasida ham soliqlar to'langandan so'nggi foyda ko'rsatkichi ishlatiladi.

Aktivlar aksiyadorlik kapitali. Ushbu aloqadorlik aktsiyadorlarga yo'naltiriladigan bank foydasining bank resurslari qanday manbalar hisobiga shakllantirilishiga (qarz majburiyatlari hisobigami yoki bank egalari mablag'i hisobigami) yuqori darajada sezgirligidan dalolat beradi. ROA ning past

darajasiga ega bo'lgan bank bank aksiyadorlari kapitalini kam miqdorda ishlatilishi va qarz majburiyatlaridan keng foydalanish evaziga ROE ning yuqori darajasiga erishishi mumkin.

Haqiqatda, ROE va ROA ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqadorlik, bank rahbariyati duch keladigan, risk va daromadlilik o'rtasidagi fundamental bog'liqni ko'rsatadi.

### **1.3 Tijorat banklari aktivlarini boshqarish yo'nalishlari.**

Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlari va ular bilan bog'liq aktiv operatsiyalarining risklik darajasini aniqlash bu jarayonini boshqarib borish muhim o'rin tutadi.

Bank aktivlari tarkibi deyilganda, balans yakuniga nisbatan har xil sifatdagi aktivlar salmog'i tushuniladi. Tijorat banklari aktivlarini asosan to'rt kategoriyaga bo'lib o'rganish mumkin: kassadagi pul mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'lar; investitsiya va qimmatli qog'ozlar; ssudalar; binolar va asbob - uskunalar. Bulardan tashqari bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud bo'lib, bular o'zlarining moddiy shakliga ega bo'lmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etadilar.

Tijorat banklarining aktivlari o'ziga xos belgilariga ko'ra likvidlik va risk darajasiga qarab hamda daromad keltirishiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi.

Bank balansida aktivlar likvidlik darajasiga qarab aks ettiriladi va likvidlik darajasiga qarab ular quyidagi 3 guruhga: yuqori likvidli aktivlar, likvidli aktivlar, nolikvid (past likvidli) aktivlarga bo'linadi.

1 guruh - yuqori likvidli aktivlar. Bularga:

- kassadagi va yo'ldagi naqd pullar, qimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqa pul hujjatlari;
- vakillik hisobvarag'idagi mablag' qoldiqlari;
- "Nostro" va "Vostro" schetlardagi qoldiqlar;

- majburiy rezervlar scheti bo'yicha mablag'lar qoldig'i;
- qimmatli qog'ozlar, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, URMB ning qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalari.

2 guruh - likvid aktivlar. Bularga:

- berilgan kreditlar (jumladan, banklararo ham);
- o'z investitsiyalari;
- boshqa qimmatli qog'ozlar, muddati 30 kungacha bo'lgan debitorlar;

3 guruh - nolikvid (past likvidli) aktivlar. Bularga:

- muddati o'tgan ssudalar;
- muddati o'tgan foizlar;
- sud aralashuvi bilan o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan ssudalar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- asosiy vositalar kiradi.

Bank doimiy tarzda o'zining likvidliligini ma'lum bir darajada saqlashi kerak, ya'ni o'zining to'lovga qobilligini shubha ostida qoldirmasligi kerak. Likvidlilikka bo'lgan talab aktivlardan keladigan daromadni oshirish faoliyatiga ma'lum darajada qarshi turadi. Bankning aktivlari qanchalik darajada likvidli bo'lsa shunchalik ular bilan bog'liq risk kichik bo'ladi, ammo shunga javoban ularga to'lanadigan foiz ham shunchalik kam bo'ladi.

Belgilangan to'lovga qobillik doirasidan chiqmagan holda aktivlarga joylashtirilgan kapitaldan daromadni oshirish, bankda boshqarish san'atini belgilaydi.

Kassadagi pul mablag'lari - bankning kassasidagi saqlanayotgan va bank kunlik hisobraqamlar bo'yicha naqd pul berishga, pulni maydalab berishga, naqd pul shaklida kreditlar berishga, bank xarajati uchun haq to'lashga, xizmatchilarga ish haqi berishga va boshqa xarajatlarga ishlatish uchun zarur bo'lgan qog'oz pullar va tangalar hisoblanadi. Shuning uchun ham bank mijozning talabini qondirish uchun beriladigan qog'oz pullarga va tangalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu kassadagi naqd pullarning qoldig'iga bir nechta omillar ta'sir qiladi, jumladan: mavsumiylik, bankning hududiy joylashishi va

boshqalar. Odatda jahon amaliyotida bank aktivlarning naqd pul bo'limiga, kassadagi naqd pullar, majburiy zahiralar fondiga ajratmalar, vakillik banklarga joylashtirilgan depozitlar hamda inkassatsiya qilinayotgan naqd pullar qo'shiladi, chunki bu mablag'lar birinchi talab qilinganda naqd pulga aylanadi. Shuning uchun ham bu mablag'larni bankda "birinchi mudofaa chizig'i" deb atashadi, chunki mijoz tasodifan o'z depozitini yoki kredit so'rab kelganda aynan shu mablag'lardan foydalaniladi.


2012 yilning I yarim yilligida mamlakatimiz bank tizimining likvidligini yanada mustahkamlash, uning barqarorligini kuchaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Natijada tijorat banklarining jami kapitali 2011 yilning shu davriga nisbatan 24,2 foiz oshib, 2012 yilning 1 iyul holatiga ko'ra 5,7 trln. so'mga etdi.



**1-rasm. Banklarning jami kapitali.<sup>10</sup>**

Banklarning kapitallashuvi darajasini yanada oshirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi ko'effitsientini xalqaro qabul qilingan standartga nisbatan ancha yuqori bo'lishini ta'minladi. Bank aktivlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30,4 foiz o'sib, 32,4 trln. so'mdan oshib ketdi.

<sup>10</sup> Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari



**2-rasm. Bank aktivlari <sup>11</sup>**

Xususan, 2012 yilning I yarim yilligida iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30,2 foiz ko'paydi yoki 18,2 trln. so'mga yetdi. Banklarning investitsiya maqsadlariga ajratilgan investitsion kreditlari miqdori ham o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 foiz oshib, joriy yilning 1 aprel holatiga ko'ra ularning miqdori 2,7 trln. so'mdan oshib ketdi.

Shu yilning 1-yarim yilligida iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida noan'anaviy yondashuvning qo'llanishi natijasida tijorat banklari balansiga qabul qilingan 166 ta iqtisodiy nochor korxonalar 157 tasida ishlab chiqarish qayta tiklandi va ularning 113 tasi yangi investorlarga sotildi. Bunday korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish ishlariga tijorat banklari tomonidan 328,8 mlrd. so'm miqdorida investitsiya kiritildi, natijada 22 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratildi. Mazkur korxonalar tomonidan jami 1,4 trln. so'mdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarildi, shundan 410,6 mln. AQSH dollaridan ortig'i eksport qilindi. Mamlakatimiz Prezidentining kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlarining ijrosini ta'minlash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga

<sup>11</sup> Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

o'shirildi. Natijada kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 barobar oshib, joriy yilning 1 iyul holatiga ko'ra 2,9 trln. so'mni tashkil etdi. Jumladan, mikrokreditlar hajmi 558,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich ham o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 barobar oshdi. Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni keng jalb qilish, resurs bazasini ko'paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar banklarning jami depozitlari miqdori yildan yilga oshib borishini ta'minlamoqda. Jahon moliya bozorlaridagi muttasil o'zgarishlar, shuningdek, banklarning xalqaro tarmoqda o'zaro jips munosabatga kirishib ketganligi barcha mamlakatlarda banklarning ish tajribasini doimiy ravishda tahlil qilib borishni taqozo etadi. Bu holatni ayni paytda davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini ham isbotlamoqda.

Shu sababli, ayni paytda xorij banklari amaliyotida boshqaruv vositalari va uslublarini tadqiq etish, shu asosda respublikamiz tijorat banklari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy qilish muhim masalalardan hisoblanadi. Xususan, xalqaro amaliyotda bank aktivlarini samarali boshqarishga nisbatan bir qancha yondashuv va talablar belgilangan bo'lib, ular bugungi kunda jahonning etakchi banklari faoliyatida keng qo'llanilmoqda. Shu o'rinda, bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi faoliyatini alohida ta'kidlash zarur.

Bazal qo'mitasining asosiy vazifasi — banklar faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi yagona standartlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Qo'mitaning asosiy me'yoriy hujjatlari quyidagilardir:

1. Samarali nazoratning asosiy qoidalari (1997 yilda ishlab chiqilgan, 2006 yilda takomillashtirilgan);
2. Bazal I – «Kapitalni baholashning xalqaro konvergensiyasi» (1988 yilda ishlab chiqilgan);
3. Bazal II – «Kapitalni o'lchash va kapital standartlarining xalqaro konvergensiyasi» (2004 yilda ishlab chiqilgan);
4. Bazal III – kapital etarililigiga qo'yilgan yangi talablar (2010 yilda ishlab chiqilgan).

Bazel qo'mitasining bank aktivlarini boshqarishdagi muhim tavsiyalari (Bazel II bo'yicha) – banklarda aktivlar bilan bog'liq tavakkalchiliklarni pasaytirish bo'yicha yondashuvlarda ifodalangan. Unda aktivlarga bog'liq tavakkalchiliklar, xususan, kredit tavakkalchiligini boshqarish, bozor tavakkalchiligini boshqarish, operatsion tavakkalchilikni boshqarish borasidagi talablar umumlashtirilgan (3-ilova ma'lumotlari).

Bundan tashqari, Bazel Iida bank kapitalining ta'minlanganligiga ham me'yorlar belgilangan, jumladan, bank kapitalining tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning umumiy summasiga nisbati 8 foizdan kam bo'lmasligi zarur. Respublikamizda esa, banklar kapitalining yetarlilik darajasi 23 foizdan oshadi. Bu esa banklar monitoringi bilan shug'ullanadigan xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan qariyb 3 barobar ko'pdir [3.19].

Ayni paytda bank aktivlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishda Bazel III tavsiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, unga muvofiq, banklar likvidligiga ikkita yangi talab kiritilmoqda:

1. Banklarning 30 kungacha bo'lgan joriy majburiyatlarining likvid aktivlar bilan 100 foiz qoplanishini nazarda tutuvchi talab;
2. Uzoq muddatli likvidlik me'yori. Unga muvofiq, banklarning bir yilgacha bo'lgan aktivlari barqaror passivlar bilan 100 foizga ta'minlangan bo'lishi shart.

Bundan tashqari, yangi Bazel qoidalarida tavakkalchilikka tortilgan aktivlar bo'yicha kapital yetarliligiga ham qo'shimcha talablar qo'yildi. Unga muvofiq, banklarning birinchi darajali kapitaliga minimal talab 2013 yilda 4,5 foiz, 2015 yilda 5,5 foiz, 2016 yildan boshlab esa 6 foiz etib belgilandi

Jadvalda qayd etilganidek, deyarli barcha mamlakatlar banklarida aktivlar hajmi 2006 yildan buyon o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Ammo Estoniya, Frantsiya, Germaniya, Irlandiya, Belgiya, Lyuksemburg kabi mamlakatlar banklarida 01.01.2010 yil holatida o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan bank aktivlari hajmida kamayish yuz bergan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aksariyat xorijiy banklar amaliyotida

aktivlarni boshqarishning quyidagi usullaridan keng miqyosda foydalanilmoqda

Bank aktivlarini boshqarishning umumiy mablag'lar manbalari usuli bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini birlashtirishni nazarda tutadi, bunda bankda dastlab birlamchi va ikkilamchi zaxiralar shakllantiriladi.

Mazkur usulni qo'llashning keyingi bosqichida kredit portfeli shakllantiriladi. Banklar amaliyotida kredit mablag'lari aktivlarning yirik ulushini tashkil etadi va bank faoliyatida muhim o'rin tutadi, chunki banklar daromadlarining asosiy qismini yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlash xizmatlarini ko'rsatishdan oladi.

Ushbu usul jalb qilingan resurslarni imkon qadar bankning daromadli aktiv amaliyotlariga yo'naltirishni nazarda tutadi. Bunda bankdan likvidlik va foydalilik tamoyillariga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi, chunki resurslarni foyda olish uchun aktiv amaliyotlarga, xususan, ko'p miqdorda yuqori daromad keltiruvchi sohaga yo'naltirish, o'z navbatida, tavakkalchilik darajasining nazoratdan chiqishiga yoki likvidlik tavakkalchiligini yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, mazkur usulni, asosan, resurslar ortiqchaligida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Aktivlarni taqsimlash usulini qo'llash esa, jalb qilinayotgan resurslarning manbalari tahliliga asoslanadi. Mazkur usulda resurslarning manbalari bo'yicha taqsimlashda resurslarning aylanuvchanligi bilan bog'liq bo'lgan muayyan cheklanishlar yuzaga keladi. Ya'ni jalb qilingan qisqa muddatli resurslar qisqa muddatli aktiv amaliyotlarga, uzoq muddatli resurslar esa uzoq muddatli aktiv amaliyotlarga yo'naltiriladi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, bu usulni qo'llash jarayonida resurslarni toifalariga qarab taqsimlash orqali likvid aktivlar (kassadagi naqd pullar)ning jami aktivlardagi ulushini qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu ikkala usulning kamchiligi shundaki, bu holatlarda mijozlarning kreditlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji etarlicha qondirilmaydi, ya'ni kreditlashda mijozlarning kreditlarga bo'lgan mavsumiy talablari to'liq e'tiborga olinmaydi. Mazkur muammolarning echimidan kelib chiqqan holda, xorij tajribasida aktivlarni boshqarishda chiziqli dasturlash usulidan foydalanish ham

keng tarqalgan bo'lib, bu usulning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bank aktivlarini boshqarishning chiziqli dasturlash usuli murakkab hisob-kitoblar orqali bir nechta muqobil usullardan maqbulini tanlab olishni nazarda tutadi. Bu usulda jalb qilinayotgan resurslarni qay tariqa yuqori daromad keltiruvchi va kamxarajat sohalarga joylashtirish vazifasi qo'yiladi.

Fikrimizcha, banklarda aktivlarni boshqarish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni imkon darajada pasaytirish, aktivlar samaradorligini oshirishda mazkur usullarni o'zaro uyg'un holda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilganimizda, respublikamiz bank menejmentida aktivlarni samarali boshqarish bu boradagi xalqaro andozalar talablarini banklarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish, rivojlangan mamlakatlar tajribasida sinovdan o'tgan usuldir.

## **II BOB. DT “XALQ BANK”INING ASOSIY MOLIYAVIY RESURSLARI TAHLILI**

### **2.1. DT “Xalq bank”ning rivojlanish tarixi va boshqaruv tuzilishi**

Xalq banki O‘zbekistonda eng yirik moliyaviy institutlardan biridir. Uning tarixi 1875 yilda Toshkentda birinchi jamg‘arma kassasi ochilishidan boshlanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 4 oktyabrdagi № 386-sonli Qaroriga muvofiq “O‘zjamg‘armabank” Davlat tijorat Xalq bankiga aylantirilgan. Bank ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki bankning muassislari xisoblanadilar.

Bank o‘z faoliyatida “Banklar va bank faoliyati to‘grisida”, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘grisida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va boshqa qonun xujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Markaziy bankning me'yoriy xujjatlariga, tijorat banklari uchun majburiy tusga ega bo‘lgan boshqa me'yoriy xujjatlarga, shuningdek o‘z ustaviga amal qiladi. Bank (shu jumladan uning bo‘linmalari) bank operatsiyalarini olib borish bilan bog‘lik qarorlar qabul qilishda davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat “Xalq banki” Chilonzor filiali hozirgi kunda mamlakatimizdagi jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan ko‘ptarmoqli yirik bank sanaladi. U Respublikamiz aholisining deyarli barcha qatlamlari bilan o‘zining qator xizmatlari orqali chambarchas bog‘lik bo‘lish bilan birga, kredit muassasalari hamda korxonalar va tashkilotlarning bank-moliya xizmati bozoridagi ishonchli hamkorga aylanmoqda. Ayni paytda Xalq bankining 14-ta hududiy, 184-ta tuman va shahar filiallari, 240-dan ortiq mini-bank hamda 3,5 mingdan ziyod shoxobcha va maxsus kassalari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat "Xalq banki" Chilonzor filiali o'z rivojlanish yo'lini belgilab olgan ya'ni u o'zining rivojlanish strategiyasiga ega. Unga ko'ra:

Keyingi 5 yil uchun vazifalarni belgilash maqsadida, bank tomonidan ishlab chiqilgan 2013—2018 yillar uchun Rivojlanish strategiyasida ko'zda tutiladigan asosiy vazifalar va maqsadlarni amalga oshirish uchun barcha kerakli bo'lgan kuch va harakatlar yo'lga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat "Xalq banki" Chilonzor filialining maqsadi va vazifalari: Jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag'larini jalb qilish, shuningdek kredit-xisob-kitob va boshqa xil bank operatsiyalarini xamda jismoniy va yuridik shaxslar bilan bitishuvlarni amalga oshirish bank faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining, boshqa davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek mulkchilikning xar kandy shakl-laridagi yuridik shaxslar bankning mijozlari va omonatchilari bo'lishi mumkin.

Faoliyati maqsadiga erishish uchun bank quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- depozitlarning o'ziga jalb qiluvchi turlarini taklif etish yo'li bilan axoli va korxonalarining mablag'larini jalb kiladi xamda jamlaydi;

- Ularning o'z vaktida kaytarilishini, ko'rsatilayotgan xizmatlarni Xalqaro standartlargacha yetkazgan xolda ularning sifati oshirilishini, yangi turlar va modifikatsiyalarni joriy qilgan holda pulsiz xisob-kitoblar rivojlantirilishini ta'minlaydi;

- Davlat va boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, xarid qilish, saklash va xisobga olish xamda ikkilamchi bozorda sotish yo'li bilan fond bozorida ular bilan operatsiyalar olib boradi;

- xorijiy mamlakatlar va MDH a'zolari bo'lgan davlatlar banklari bilan to'gridan-to'gri korrespondentlik munosabatlarini o'rnatadi;

- bank aktivlaridan samarali foydalanish, kredit tavakkalchiliklarini pasaytirish, yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan

shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish maqsadida boshqa tijorat banklarini, ixtisoslashtirilgan fondlarni jalb qilgan xolda kreditlashning qo'shma sxemalarini amalga oshirishda qatnashadi;

- yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish uchun kreditlar va mikrocreditlar beradi;

- ko'chmas mulk kurish va ularni tuzatish, axolining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar transport vositalari, garajlar, mebellar, maishiy texnikalar va boshqa buyumlarni sotib olishi maqsadlari uchun iste'mol krediti tizimini rivojlantiradi;

- O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda axolining qimmatbaxo metallari va qimmatbaxo toshlari bilan operatsiyalarni amalga oshiradi;

- lotereyalar chiqarishni va ularni sotishni amalga oshiradi, boshqa yutuqli tadbirlar o'tkazadi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat "Xalq banki" Chilonzor filialining o'z mablaglariga quyidagilar kiradi:

- ustav sarmoyasidan;
- zaxira jamg'armadan;
- taksimlanmagan foydadan;

Bank kengashi qaroriga ko'ra shakllantiriladigan boshqa jamg'armalardan xosil bo'ladi.

Bankning ustav sarmoyasi 10 milliard so'm miqdorida belgilangan.

Aksiyadorlarning bankning ustav sarmoyasidagi badallari miqdori quyidagicha:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 5,1 mlrd so'm (ustav sarmoyasining 51 foizi);

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 4,9 mlrd so'm (ustav sarmoyasining 49 foizi).

Bank foydadan 5 foizgacha miqdordagi har yilgi ajratmalardan, u ustav sarmoyasining 15 foiziga yetgungacha, zaxira jamg'armasini tashkil etadi.

Bank jamg'armalarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomlar Bank kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Bankning kredit resurslari quyidagilar hisobiga shakllanadi:

- ustav sarmoyasi, zaxira va boshqa jamg'armalar;
- mijozlarning bank hisob-raqamlaridagi, shu jumladan muddatli omonatlar va depozitlardagi mablaglari;
- boshqa banklar kreditlari;
- imzolangan bitimlar va shartnomalarga muvofiq jalb qilinadigan boshqa davlatlarning korxonalarini va banklari mablaglari;
- obligatsiyalar va boshqa qimmatli kog'ozlar chikarish natijasida olingan mablag'lar;
- jalb qilingan boshqa mablaglar.

Bankning yil mobaynida taqsimlanmagan foydasidan kredit resurslari sifatida foydalanilishi mumkin.

Aksiyadorlar umumiy majlisining mutlak vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Vazirlar Mahkamasiga Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kiritish;
- bankni qayta tashkil etish yoki tugatish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish;
- Bank kengashi a'zolarini tasdiqlash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin to'xtatish to'g'risidagi masalani xal etish;
- e'lon qilingan aksiyalarning chegaraviy miqdorini belgilash;
- bankning ustav sarmoyasini o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish;
- o'z aksiyalarini sotib olish;
- bankning taftish komissiyasi a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin to'xtatish;
- bankning tashqi auditorini tasdiqlash;

- bankning yillik xisobotlarini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zararlari xisobini tasdiqlash, uning foyda va zararlarini taqsimlash;

- bank xarajatlarini tasdiqlash va ularni bankni rivojlantirish biznes-rejasi bilan solishtirish, Bank kengashi a'zolariga beriladigan mukofotlar va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

-bank aksiyadorlari umumiy majlisi tartibini tasdiqlash;

-aksiyalarni maydalashtirish va jamlash;

-bankning kredit berish, aktivlar va passivlarni boshqarish, investitsiyalarni amalga oshirish va bank mijozlariga yangi turdagi xizmatlar ko'rsatish sohasidagi siyosati asosiy yo'nalishlarini belgilash;

Bank kengashi va taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

-qiymati bitishuv to'g'risida qaror qabul qilingan sanada bank aktivlari balans qiymatining 50 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladigan mulkni sotib olish yoki begonalashtirish bilan bog'liq yirik bitishuvlarni amalga oshirish;

-qiymati bitishuv to'g'risida qaror qabul qilingan sanada bank aktivlari balans qiymatining 25 foizdan 50 foizgachasini tashkil qiladigan mulkni sotib olish yoki begonalashtirish bilan bog'liq yirik bitishuvlarni amalga oshirish, agar bunday bitishuvni amalga oshirish masalasi yuzasidan Kengashda erishilmagan bo'lsa;


-amaldagi qonun hujjatlarida va ushbu ustavda nazarda tutilgan boshqa masalalarni xal etish.

Bank kengashi yetti a'zodan iborat bo'ladi. Bank kengashining to'rt a'zosini Moliya vazirligi, uch a'zosini Markaziy bank tayinlaydi.

Bank kengashi raisi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdimnomasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi. Bank kengashi raisining o'rinbosarini Bank kengashi raisi Kengash a'zolari orasidan tayinlaydi.

Bank boshqaruvi a'zolari va Boshqaruv raisi Bank kengashiga saylanishi mumkin emas. Bank kengashi raisi Moliya vazirligidan davlatning vakolatli vakili xisoblanadi, unga davlatga tegishli aksiyalar paketini boshqarish

yuklanadi. Bank kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan marta qayta saylanishlari mumkin.



**3-rasm. DT “Xalq banki” Chilonzor filiali boshqaruvining tashkiliy strukturasi<sup>12</sup>**

<sup>12</sup> DT “Xalq banki” Chilonzor filialining ustavi ma’lumotlari asosida tayyorlangan

## 2.2 DT “Xalq banki” Chilonzor filialining asosiy moliyaviy resurslari tahlili

Biz endi bankning iqtisodiy ahvoli qanday ekanligi hamda uning likvidlilik darajasi qanchaligi foyda va zararlarini tahlil qilib chiqamiz. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki DT Xalq banki Chilonzor filialida omonatlar hajmi yaxshi ko'rinishga ega bo'lgan ya'ni 2012-2013-2014 yillar omonatlar va depozitlar 754490548,43 mlrd.so'm, 87114556,28 mlrd.so'm, 9011256655,40 mlrd.so'mlarni tashkil qilgan. Mijozlarga bergan kreditlari bo'yicha esa 213750078,50 mln.so'm, 356839190,13 mln.so'm, 48819116,92 mln.so'mga yetgan. Soliq to'laguncha bo'lgan foyda bankda yuqoridagi yillar bo'yicha 415574515,25 mlrd.so'm, 44225712,84 mlrd.so'm, 478732785,12 mlrd.so'mgacha daromad olishganligini ko'rishimiz mumkin. Asosiy fondlar qiymati 30158088,36 mln.so'm, 35723145,74 mln.so'm, 39741597,23 mln.so'mni tashkil etgan. Shunga ko'ra kapital qo'yilmalar ham 30158088,38 mln.so'm, 35723145,74 mln.so'm, 39741597,23 mln.so'mgacha yetqazilgan. Bankdagi ishchi xodimlar soni ham yillarda 62-69-78 kishilarni tashkil qilgan. Shu jumladan shuba va bo'lim boshliqlari esa 7 kishi 9 kishi hamda 11 kishilarni tashkil etgan.

### 1-jadval

#### Bank faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari<sup>13</sup>

No	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012	2013	2014
1.	Omonat (depozit)lar hajmi	mlrd. so'm	7 544 960 548,43	8 711 466 556,28	9 011 256 655,40
2.	Mijozlarga berilgan kreditlar	mln. so'm	213 750 078,50	356 839 190,13	468 819 116,92
3.	Soliq to'languncha bo'lgan foyda	mlrd. so'm	4 155 745 615,25	4 642 256 712,84	4 787 632 785,12
4.	Sof foyda	mlrd. so'm	3 883 395 778,23	4 316 616 599,48	4 455 525 622,95
5.	Asosiy fondlar qiymati	mln. so'm	30 158 088,36	35 723 145,74	39 741 597,23
6.	Kapital qo'yilmalar	mln. so'm	50 277 330,03	56 586 256,25	60 528 263,73
7.	Ishchi – xodimlar soni	Kishi	62	69	78
8.	Shu jumladan shuba va bo'lim boshliqlari	Kishi	7	9	11
9.	O'rtacha ish xaqi	so'm	425263,51	506785,42	655156,56

<sup>13</sup> DT “Xalq banki” Chilonzor filiali 2014-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki DT Xalq banki Chilonzor filialida omonatlar hajmi 2012-2013-2014 yillar davomida quyidgicha ko'rinishga ega bo'lgan. Reja bo'yicha 4143839,6 mln.so'm ko'zlangan bo'lsa, Haqiqatda esa 3869505,7 mln.so'mni tashkil qilgan. Bu esa rejaning 93,4 % foizi bajarilganini ko'rsatmoqda. Mijozlarga bergan kreditlari bo'yicha esa rejada 4957256,4 mln.so'm belgilangan bo'lsa, shundan 4819116,9 mln.so'mi bajarilgan. Bu foizda 97,8ni tashkil etadi. Bank xarajatlari esa 1576393,00 mln.so'm rejada belgilangan lekin haqiqatda 1395754,00 mln.so'mni tashkil etgan bu bank uchun yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Bankning sof foydasi rejada 3883395778,23 mlrd.so'm kutilgan bo'lsa haqiqatda bu ko'rsatkich 4316616599,48 mlrd.so'mga yetgan bu bank faoliyati yaxshi darajada ekanligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich 106%ga bajarilgan. Foydadan soliq to'lash ham foyda kabi ko'tarilib ketgan bu holat bank

## 2-jadval

### Bank faoliyatining iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili<sup>14</sup>(so'mda)

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Reja	Haqiqat	Bajarilish darajasi %
1.	Omonat (depozit)lar hajmi	mln.so'm	4 143 839,6	3 869 505,7	93,4
2.	Mijozlarga berilgan kreditlar summasi	mlrd.so'm	4 957 256,4	4 819 116,9	97,8
3.	Bank xarajatlari	mln.so'm	1 576 393,00	1 395 754,00	88,5
4.	Yalpi foyda	mln.so'm	6 896 445 658,53	7 584 548 548,48	109
5.	Sof foyda	mlrd.so'm	3 883 395 778,23	4 316 616 599,48	106
6.	Foydadan soliq	mln.so'm	272349837,02	325640113,36	103
7.	Bank rentabelligi	%	92	95	97

uchun salbiy lekin foyda soliqlardan ko'ra ancha ko'p ya'ni soliq 272349837,02 so'm rejada 325640113,36 so'm haqiqatda bo'lgan . bu ma'lumotlar bank faoliyati yaxshi ekanligini bildiradi. shu o'rqali bank o'z rentabelligini ham yuqori darajalarga chiqarib olishga muvofaq bo'lgan deb

<sup>14</sup> DT "Xalq banki" Chilonzor filiali 2014-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

aytishimiz mumkin.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra bankda sof foyda 2012-yilda 3883395778,23 so'm, 2013-yilda 4316616599,48 som, 2014-yilda 4455525622,95 so'mlarni tashkil etgan. Bankning foiz stavkasi yuqoridagi yillar bo'yicha 15-14-13 foizlarni tashkil etgan davr xarajatlari 682 900,00 so'm, 555 400,00 so'm, 625 125,00 so'm. Bu jadvalda ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan ularning barchasi bankda iqtisodiy ahvol yaxshi darajada ekanligini ko'rsatadi. Demak bank yuqori darajadagi banklar qatoriga kirgizsak bo'ladi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra aylanma aktivlar - A2 806681446,99 mln.so'm 860 329 945,83 mln.so'm 898 478072,21 mln.so'm 1,037 foizlarni tashkil qilgan.

Majburiyatlar – P2 505 444 806,04 mln.so'm, 576 912 341,57 mln.so'm, 570 503 924,57 mln.so'm bo'lgan bo'lsa foizda esa 1,129 bo'lganini qayd etishimiz mumkin. Muddati uzaytirilgan debitorlik qarzi – Udq 139 547 825,36 mln.so'm, 225 505 023,34 mln.so'm, 159 464 584,91 mln.so'mlarni tashkil

### 3-jadval

#### Bankda xarajatlar va daromadlar balansi<sup>15</sup> (so'mda)

Ko'rsatkichlar nomi	2012	2013	2014
1. Sof foyda	3 883 395 778,23	4 316 616 599,48	4 455 525 622,95
2. Bank foiz stavkasi (%)	15	14	13
3. Davr xarajatlari,	682 900,00	555 400,00	625 125,00
4. Shu jumladan			
5. Mehnatga xaq to'lash xarajatlari	455 225 22,77	515 126 421,62	565 854 231,45
6. Asosiy fondlar amortizatsiyasi	181302	138802	251501
7. Ijtimoiy madaniy maishiy ob'ektlarni saqlab turish xarajatlari	1851803,89	2120582,63	3730785,42
8. Soliqlar va ajratmalar	272494167,02	325775963,36	332262972,17
9. Boshqa xarajatlar	2903695,45	3570458,58	4540525,65
10. Moliyaviy faoliyat xarajatlari	5856220,12	6259180,45	6921230,59
11. Xarajatlarining pasaytirish tadbirlarini joriy etish samarasi	9885615,26	7554586,25	5216982,91
12. Foydadan soliq va ajratmalar	272 349 837,02	325640113,36	332107162,17
13. Foydani oshirish tadbirlarini joriy etishdan samara	765458645,59	874209450,58	925652880,56

<sup>15</sup> DT "Xalq banki" Chilonzor filiali 2014-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

yetgan 1,143 bo'lib esa foizda ifodalangan. O'zlik mablag'lari manballari – P1 14 031 710 886,05 mlrd.so'm, 19 605 730 533,50 mlrd.so'm, 24 400 944 973,04 mlrd.so'm. Foizda esa 1,739 foizni tashkil etgan.

**4-jadval**

**Bankning moliyaviy koeffitsientlari tahlili<sup>16</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>2013</b>	<b>2014</b>	<b>2014 yilda 2013 yilga nisbatan %</b>
1.	Aylanma aktivlar - A2	mln.so'm	806 681 446,99	860 329 945,83	1,037
2.	Majburiyatlar – P2	mln.so'm	505 444 806,04	576 912 341,57	1,129
3.	Muddati uzaytirilgan debitorlik qarzi – Udq	mln.so'm	139 547 825,36	225 505 023,34	1,143
4.	Uzoq muddatli qarzar va kreditlar – Uqk	mln.so'm	104 292 558,82	195 094 556,24	1,005
5.	O'zlik mablag'lari manballari – P1	mlrd.so'm	14 031 710 886,05	19 605 730 533,50	1,739
6.	Balans aktivi yoki passivi yakuni – Bya		1 968 363 619,58	4 679 793 129,72	2,933
7.	Uzoq muddatli aktivlar – A1		762 605 754,41	785 847 357,84	1,021
8.	Hisobot davrida bajarilgan xizmatlarning amaldagi hajmi – Q amal		227 470 269,50	225 425 717,00	1,299
9.	Belgilangan vaqt mobaynida xizmatlar ko'rsatish mumkin bo'lgan eng katta hajm – Q loyiha		387 785 278,54	321 542 781,21	1,015
10.	To'lovga qobillik yoki qoplash koeffitsienti – $Ktq = \frac{A2 - Udq}{P2 - Uqk}$		8,066	8,603	1,114

<sup>16</sup> DT "Xalq banki" Chilonzor filiali 2014-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

11.	O'zlik va qarz mablag'lari nisbati koeffitsienti - $Kmn = A1/ P2 - Uqk$		1,042	1,782	1,872
12.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti – $Kmm = P1 / Bya$		4,226	4,189	1,687
13.	O'zlik aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti – $Kmt = A1-P1/A2$		7,626	7,858	1,021
14.	Quvvatlardan foydalanish koeffitsienti – $Kqf = Q \text{ amal} / Q \text{ loyiha}$		5,865	7,010	1,280

Balans aktivi yoki passivi yakuni – Bya 1 968 363 619,58 so'm 4 679 793 129,72 so'm, 5 774 127 490,15 so'm. Foizda 2,933 foiz bo'lgan. Hisobot davrida bajarilgan xizmatlarning amaldagi hajmi – Q amal 227 470 269,50 so'm ,225 425 717,00 so'm, 295 588 221,47 so'mlarni tashkil qilgan bo'lsa 1,299 foizda ifodalangan. Belgilangan vaqt mobaynida xizmatlar ko'rsatish mumkin bo'lgan eng katta hajm – Q loyiha 387 785 278,54 so'm, 321 542 781,21 so'm, 393 521 654,00 so'mlarga yetgan bo'sa foizda ifodalanishi 1,015 foizni tashkil etgan.

## 5.-jadval

### DT Xalq banki Chilonzor filiali omonatlari ma'lumotlari<sup>17</sup>

Yillar	Jami	Talab qilib olinguncha (20206)	Jamg'arma (20406)	Muddatli (20606)	Plastkart omonati (22618)
01.01.2012	3 978 354,9	1 542 987,8	185 531	1 917 486,3	332 349,7
01.01.2013	4 143 839,6	1 628 903,5	6 822,4	2 285 727	222 386,7
Farqi	165 484,7	85 915,8	-178 708,6	368 240,7	-109 963
%	104,2	105,6	3,7	119,2	66,9

O'zlik va qarz mablag'lari nisbati koeffitsienti -  $Kmn = A1/ P2 - Uqk$  koeffitsient ko'rinishida berilgan bo'lib ular yillar bo'yicha mos ravishda quyidagicha berilgan 1,782-1.951-1,872. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti –

<sup>17</sup> DT "Xalq banki" Chilonzor filiali 2012-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

Kmm = P1 / Bya bo'yicha esa u quyidagicha ko'rinishda berilgan 4,226-4,189-7,129 ularning nisbati esa 1,687 foizni tashkil etgan. Filialimizga 2012 yil davomida 6 574 619,3 ming so'mlik pensiya, 2 363 804,0 ming so'mlik

### 6-jadval

#### DT Xalq banki Chilonzor filiali Pensiya va nafaqalar to'g'risida ma'lumotlar<sup>18</sup>(mln so'mda)

Yo'nalish nomi	Moliyalashtirilgan		Tarqatilgan	
	Soni	Summasi	Soni	Soummasi
18 yoshgacha	9 955	425 772	9 955	425 772
2 yoshgacha	14 051	1 141 162	14 051	1 141 162
Kam ta'minlangan	11 276	796 870	11 276	796 870
Xarbiy pensiya	5 615	2 255 111,3	5 615	2 255 111,3
Sobes pensiya	175	50 527,6	175	50 527,6
Jami	23 075	4 268 980,4	23 075	4 268 980,4

nafaqalar moliyalashtirilgan va uz navbatida axoliga tulab berilgan. Shundan 5 615 ta xarbiy pensionerlarga 2 255 111,3 ming so'm, 175 ta ta'minot bo'limi (sobes) pensionerlariga 50 527,6 ming so'm, 23 075 ta Ijtimoiy ta'minot bo'limi (sobes) pensionerlariga 4 268 980,4 ming so'm, 9 955 ta 18 yoshgacha bolalar nafaqasini oluvchilarga 425 772,0 ming so'm,

### 7-jadval

#### DT Xalq banki Chilonzor filialining Pul muomalasiga doir ishlarni amalga oshirilishi to'g'risida ma'lumotlar<sup>19</sup>(mln.so'mda)

Simvollar	Reja	Fakt	Farq	%
Savdo tushumi	19 606 200,0	7 927 904,2	-11 678 295,8	40,4
Kommunal tulovlar	5 636 500,0	5 315 321,6	-321 178,4	94,3
Xizmat ko'rsatish	8 341 000,0	7 802 905,5	-538 094,5	94,3
Omonatga tushum	140 010	145 542,7	5 542,7	104
Boshqa tushumlar	3 270 350,0	3 416 164,5	145 814,5	104,5
Jami	36 994 050,0	24 607 838,5	-12 386 211,5	66,5

<sup>18</sup> DT "Xalq banki" Chilonzor filiali 2012-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

<sup>19</sup> DT "Xalq banki" Chilonzor filiali 2012-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

14 051 ta 2 yoshgacha bolalar nafaqasini oluvchilarga 1 141 162,0 ming so'm, 11 276 ta kam ta'minlangan oilalar nafaqasini oluvchilarga 796 870,0 ming so'm moddiy yordam pullari tarqatilgan.

Filialda 2012 yil 1 yanvar holatiga 146 ta mijozga kredit berilgan bo'lib, kredit portfeli 2 325 880.2 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yil 1 yanvar holatiga 146 ta mijozga kredit ajratilgan bo'lib, kredit portfeli 2 881 998,1 ming so'mni tashkil qilmoqda.

**8-jadval**


**DT Xalq banki Chilonzor filialining kredit portfeliga doir  
ma'lumotlar<sup>20</sup> (mln.so'mda)**

№	Kredit turi	01.01.2012 holatiga soni	01.01.2012 holatiga qoldiq so'mmasi	01.01.2013 holatiga soni	01.01.2013 holatiga qoldiq so'mmasi	2012 yilda berilgan kreditlar soni	2012 yilda berilgan kreditlar so'mmasi
1	Qurilish	0	0	0	0	<b>0</b>	<b>0</b>
2	Overdraft	0	0	0	0	<b>0</b>	<b>0</b>
3	Komfort Lyuks	2	2 709,8	0	0	<b>0</b>	<b>0</b>
4	Talaba	0	0	0	0	<b>0</b>	<b>0</b>
5	Avto kredit	32	48 250,8	50	133 745,8	<b>31</b>	<b>95 350,5</b>
6	Ipoteka	0	0	0	0	<b>0</b>	<b>0</b>
7	Oila farovonligi	69	2 102 270,2	68	2 037 055,7	<b>3</b>	<b>172 500</b>
8	Savdo	22	91 902,3	21	96 078,1	<b>9</b>	<b>62 900</b>
9	Ishlab chikarish	1	49 222,4	0	0	<b>0</b>	<b>0</b>
	Jami	3	22 487,9	6	539 560,7	<b>3</b>	<b>530 000</b>

<sup>20</sup> DT "Xalq banki" Chilonzor filiali 2012-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

Filialda jismoniy shaxslarga jami 3 739 ta plastik kartochka tarqatilgan bo'lib, 2013 yil 1 yanvar xolatiga ulardagi qoldiq 222 386,7 ming so'mni tashkil qildi. 2012 yil davomida jismoniy shaxslarga jami 1930 ta plastik kartochka tarqatilgan, shundan bank xodimlariga 40 ta, pensionerlarga 70 ta, 18 yoshgacha va 2 yoshgacha bolalar nafaqaxo'rlariga 1625 ta Boshqalarga 185 ta plastik kartochkalar tarqatilgan.

2012 mobaynida Yuridik shaxslar uchun 10 ta korporativ kartalar ochilgan bo'lib 2013 yil 1 yanvar holatiga qoldigi 4 731,9 ming so'mni tashkil qilgan.



**4-rasm. “Xalq bank”ning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kredit portfeli tuzilishi<sup>21</sup>, foizda**

2013 yil 1 yanvar xolatiga filialda jami 44 dona terminal bo'lib, shundan yuridik tashkilotlarga 28 dona savdo terminallari, filial shaxobchalari va mini banklarda 16 dona komunal tulovlari uchun terminallar urnatilgan.

#### 9-jadval

**DT Xalq banki Chilonzor filialining pul muomalasi<sup>22</sup>(mln.so'mda)**

Simvollar	Reja	Fakt	Farq	%
Savdo tushumi	13 419 600	6 888 465,7	-6 531 134,3	51,3
Kommunal tulovlar	5 375 100	5 205 486,4	-169 613,6	96,8
Xizmat ko'rsatish	6 749 500	6 243 016,4	-506 486,6	92,5
Omonatga tushum	248 650	246 152,8	-2 497,2	99
Boshqa tushumlar	10 966 100	10 699 919,6	-266 180,4	97,6
Jami	36 758 950	29 283 040,9	-7 475 909,1	79,7

<sup>21</sup> DT “Xalq bank” ma'lumotlari asosida bitiruvchi tomonidab tuzilgan.

<sup>22</sup> DT “Xalq banki” Chilonzor filiali 2013-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

Filialda 2013 yil 1 yanvar holatiga 146 ta mijozga kredit berilgan bp'lib, kredit portfeli 2 811 988.1 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2014 yil 1 yanvar holatiga 177 ta mijozga kredit ajratilgan bp'lib, kredit portfeli 3 839 190,13 ming so'mni tashkil qilmoqda.

## 10-jadval

### DT Xalq banki Chilonzor filialining kredit portfeli<sup>23</sup>

No	Kredit turi	01.01.2013 holatiga soni	01.01.2013 holatiga qoldiq so'mmasi	01.01.2014 holatiga soni	01.01.2014 holatiga qoldiq so'mmasi	2013 yilda berilgan kreditlar soni	2013 yilda berilgan kreditlar so'mmasi
1	Qurilish	0	0	0	0	0	0
2	Overdraft	0	0	0	0	0	0
3	Komfort Lyuks	0	0	0	0	0	0
4	Talaba	50	133 745,8	60	169 396,3	14	43 531,8
5	Avto kredit	0	0	0	0	0	0
6	Ipoteka	68	2 037 55,7	89	3 103 44,8	27	1 465 706,3
7	Oila farovonligi	21	96 078,1	21	125 62,83	6	52 560
8	Savdo	0	0	1	1065,2	1	15 000
9	Ishlab chikarish	6	539 560,7	6	439 721	2	122 272,9
	Jami	127	2 325 80,2	177	3 839 190,13	177	3 839 190,13

1. Yil boshidan ajratilgan kreditlar hajmi.

Kichik biznes sub'yektlariga ajratilgan kreditlar hajmi.

Davlat-tijorat Xalq banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan 2014 yil uchun kichik biznes sub'yektlariga kredit ajratish reja-prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra joriy yil 12 oyi uchun 5 492,0 mln so'm miqdorida kreditlar ajratilishi belgilangan. Ushbu reja-prognoz ko'rsatkichlari 2015 yil 1 yanvar holatiga

<sup>23</sup> DT "Xalq banki" Chilonzor filiali 2013-yil yakuni bo'yicha hisoboti asosida tayyorlangan

103,2%ga bajarilgan bo‘lib, bankning Chilonzor filiali tomonidan 5 666,0 mln.so‘mni tashkil qiladi.

Davlat tijorat Xalq banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan 2014 yil

**11-jadval.**

**Davlat-tijorat Xalq banki Chilonzor filialining 2014 yil yakunlari bo‘yicha kredit portfeli <sup>24</sup>(ming.so‘mda)**

№	Kreditlar	Mijozlar soni	Qoldig‘i (ming so‘m)	Portfelga nisbatan foizi
1	Ijtimoiy	0	0	0
2	Talaba	53	126 387,5	2,62%
3	Oila faravonligi	9	51 854,1	1,08%
4	Ipoteka	91	3 659 381,8	75,93%
5	Yuridik	13	981 493,4	20,37%
Jami		166	4 819 116,9	100%

uchun kichik biznes sub'yektlarini mikrokreditlashga kredit ajratish Reja-prognoz ko‘rsatkichlariga ko‘ra joriy yil 12 oyi uchun 742,0 mln.so‘m miqdorida kreditlar ajratilishi belgilangan. Ushbu reja-prognoz ko‘rsatkichlari 2015 yil 1 yanvar holatiga 122,0%ga bajarilgan bo‘lib, bankning Chilonzor filiali tomonidan 907,0 mln.so‘mni tashkil qiladi.



**5-rasm.»Xalq bank» aktivlari o‘sishi<sup>25</sup>, mln. so‘m**

<sup>24</sup> DT “Xalq banki” Chilonzor filiali 2014-yil yakuni bo‘yicha hisoboti asosida tayyorlangan

<sup>25</sup> DT “Xalq bank” ma‘lumotlari asosida bitiruvchi tomonidab tuzilgan.

Servis va xizmat ko'rsatish soxasiga ajratilgan kreditlar hajmi Davlat-tijorat Xalq banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan 2014 yil uchun servis va xizmat ko'rsatish soxasiga ajratilgan kredit Reja-prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra joriy yil 12 oyi uchun 3 215,0 mln.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi belgilangan.

Ushbu reja-prognoz ko'rsatkichlari 2015 yil 1 yanvar holatiga 100,0%ga bajarilgan bo'lib, bankning Chilonzor filiali tomonidan 3 217,0 mln.so'mni tashkil qiladi.

Filialimizga 2014 yil davomida jami 46 269,5 mln so'm naqd pul qabul qilish rejasi o'rnatilib, amalda esa 38 358,5 mln so'm mikdorida naqd pul mablag'i kirim qilindi, ya'ni 83 % ga bajarildi.

Filial tomonidan 2014 yil yanvar-dekabr oylarida Markaziy bank zaxira fondiga 9 222,2 mln so'm, Boshqa filiallarga 1 185,0 mln so'm mikdorida naqd pul topshirildi. Filialimizda 2014 yil yanvar-dekabr oylarida jami aksiz tovarlardan 2 084,4 mln so'm bank kassasiga kirim kilingan. Xozirgi vaktida filialimiz 240 ta naqd pul topshiradigan mijozlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

### **2.3. «Xalq bank»da personalni boshqarishning amaldagi holati tahlili**

«Xalq bank» o'z faoliyati davomida Markaziy tomonidan tavsiya etilgan va amaliyotda qo'llanilayotgan korporativ boshqaruvning shaffoflik, vazifa va funksiyalarni mazkur tizim elementlari o'rtasida o'zaro teng taqsimlash tamoyillarini qo'llaydi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlariga hamda o'zining Nizomiga muvofiq mazkur faoliyatning huquqiy asoslari yaratilgan. Sh bilan birga aniq va kuchli bilim va tayyorgarlikka ega bo'lgan jamoani shakllantirish hamda shuning barobarida har qanday murakkab vaziyatda ham yengib chiqa oladigan personallar guruhini tuzish muhim bo'lib qolmoqda.

**Tijorat banklari xodimlari qobiliyatlarini  
tasniflash usuli<sup>26</sup>**

<b>A – etakchilik qobiliyatlari rivojlanganlik darajasi</b>	Yuqori malakali menejment ishlari uchun talab etiladi. Qobiliyatlar rivojlanganligining mazkur darajasi faqat o‘z lavozim majburiyatlariga ko‘ra, strategik qarorlar qabul qila oladigan rahbarlar uchun zarur.
<b>V – kuchli qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi</b>	Rahbarlik qiluvchi bo‘g‘in uchun talab etiladi. Ushbu daraja faqat o‘rta bo‘g‘in rahbarlar uchun kerak. U ko‘nikmalarning alohida yuqori rivojlanganlik darajasini nazarda tutadi.
<b>S – qobiliyatli bo‘lishning tayanch darajasi</b>	Mutaxassis uchun zarur va etarli daraja. Tayanch daraja mazkur qobiliyat egasi qanday xulq-atvor va qanday imkoniyatlarga ega bo‘lishi haqida tasavvur beradi.
<b>D – etarli darajada rivojlanmagan qobiliyat</b>	Normal daraja – qobiliyatni rivojlantirish talab etiladi. Ushbu daraja xodim qobiliyati tarkibiga kiradigan ko‘nikmalarni qisman namoyon etadi. U kerakli ko‘nikmalarni namoyon qilishga harakat qiladi, intiladi, ularning zarurligini anglab etadi, lekin, doim ham buning uddasidan chiqmaydi.
<b>E – umuman rivojlanmagan qobiliyat</b>	Qoniqarsiz daraja – rivojlanishi zarur. Ushbu darajadagi xodim zarur ko‘nikmalarga ega emas, ularni egallashga harakat ham qilmasligidan dalolat beradi. E - daraja qoniqarsiz hisoblanadi, chunki, xodim hech qanday ko‘nikmalarni namoyon qilmaslik bilan birga, ularning muhimligini tushunmaydi va ularni rivojlantirishga ham intilmaydi.

2014 yilda “Xalq bank” da mijozlar bilan ishlash tizimini optimallashtirish, yirik va kichik biznesni rivojlantirish hamda biznes-texnologiyani takomillashtirish maqsadida bir qator jiddiy tuzilmaviy o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur o‘zgarishlarda bankning istiqbolda hududiy biznesni rivojlantirish, kichki biznesni kengaytirish, kredit portfelini oshirish kabi vazifalarni hal etishga qaratilgan vazifalarga yo‘naltirilgan kadrlarni yig‘ishga asosiy e‘tibor qaratildi. «Xalq bank»ning Toshkent shahrida joylashgan bosh ofis xodimlarini ham hisoblaganda hisobot davrida 174 dan 217 taga etdi<sup>27</sup> Ushbu o‘shishning asosiy sabablaridan biri bu Sergeli tumani filialining tashkil etilib unda 39 ta xodim ishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi. Bizningcha, mazkur holat kredit operatsiyalari departamenti, bankning chakana xizmatlar departamenti,


<sup>26</sup> DT “Xalq bank” ma’lumotlari asosida bitiruvchi tomonidab tuzilgan.

<sup>27</sup> DT “Xalq bank” ma’lumotlari asosida bitiruvchi tomonidab tuzilgan.

operatsion departament, moliyaviy nazorat xizmati, ichki audit xizmti hamda Toshkent shahri bo'yicha chakana xizmatlar markazining tarmog'i kabilarinng tashkil etilishi bilan vujudga kelgan.

Professional ta'lim va kvalifikatsiyani oshirish tizimi maqsadlari aniq natijalarga erishishni taqozo qilmoqda. Shu boisddan, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, risklar darajasini tushirish, raqobatbardoshlikni mustahkamlash hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan joriy etilgan yuqori standrtlaga amal qilinishini ta'minlashni oshirib borish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

2014 yilda «Xalq bank»ning xodimlar zahira tarkibi bilan ishlash borasida olib borilgan ijobiy ishlar o'z samarasini berdi. Chunki, kadrlar siyosati asosida zahira tanlash va ular bilan ishlash borasida bank tomonidan tanlangan to'g'ri yo'nalish zamiri asosida rahbarlik lavozimlariga tayinlangan xodimlarning qariyb 50 foizi bankning zahiraga olingan xodimlarini tashkil etdi.



**6-rasm. «Xalq bank»ning xodimlari erkak va ayollar o'rtasidag o'zaro nisbat darajasi<sup>28</sup>**

Bank rivojining asosi bo'lgan xodimlar bilimi, malakasi va ularni tajribasi hisoblanishini nazarda tutgan holda hisobot yilida o'zining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan bank xodimlari malakasini oshirish, qayta tayyorlash ishlarini ham davom ettirdi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida, bank tizimida faoliyat yuritayotgan soha mutaxassislarini

<sup>28 28</sup> «Xalq bank» ning ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tuzilgan

malaka oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratildi . Yosh xodimlarni xorijda va respublika hududida malaka oshirishlariga sharoit yaratib berish, ularni zamonaviy bank ishi bo'yicha chet el banklari tajribasini o'rganishlari va amaliyotga tatbiq etishlarini yo'lga qo'yish maqsadida bir qator bank mutaxassislarini chet davlatlarda malakalarini oshirilishiga erishildi.

Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug'ullanish har kimning mutloq huquqidir. Ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmaslik javobgarlikka tortish uchun asos bo'lolmaydi.

### **III BOB. MAMLAKATIMIZDA BANK TIZIMINI MODERNIZATSİYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI**

#### **3.1 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda bank tizimining rivojolanishi.**

Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi tufayli mamlakatda yangi moliyaviy siyosat ishlab chiqildi va hukumat tomonidan real hayotda amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi har bir iqtisodiy faoliyatning boshlanishi davlatning yaqindan turib bergan moliyaviy yordami tufayli rivojlanib, takomillashib boradi.

Hozirgi kunda banklarning umumiy aktivlari aholi va yuridik shaxslar hisob raqamlaridagi mablag'lar miqdoridan 2 barobardan ham ortiq bo'lib, bu ularning to'liq himoyasi va to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Bank tizimining umumiy joriy likvidligi banklarning tashqi to'lovlar bo'yicha joriy majburiyatlaridan 10 barobar ko'pdir. Boshqacha aytganda, respublikamiz bank tizimining mustahkam himoyasi yaratilgan.

Bank tizimining mustahkamlanishi va unga nisbatan aholi ishonchining ortishi natijasida omonatlar hajmi sezilarli ravishda ortib bormoqda.

Bugungi sharoitda esa bunday ijobiy o'zgarish iqtisodiyotimizning istiqboldagi taraqqiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning asosiy eksport tovarlari bo'yicha dunyo bozorlaridagi narx barqarorligi, davlat va xususiy sektorning sezilarli darajadagi kapital qo'yilmalari, aktivlar sifati va kapitalning o'sish tendentsiyasi, tizimda likvidlik holatining yaxshiligi, kapitalning ichki resurslar hisobiga oshib borishi, iqtisodiyotning o'sishi hisobiga banklar daromadining oshib borishi, hukumatning banklarni faol qo'llab-quvvatlashi bank tizimining rivojlanish istiqboli barqarorligi omili bo'lib qolmoqda.

Ta'kidlash lozimki, 2013 yil avgustida «Moody's» xalqaro reyting agentligi "O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari" to'g'risida hisobotini e'lon qildi va ketma-ket to'rtinchi yil ham O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari "barqaror" deb baholadi.

O'zbekiston banklari aktivlari 2013 yil yakunlariga ko'ra 43,9 trillion so'mdan oshib, yiliga o'sish sur'ati 30 foizni tashkil etdi. 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, banklar kapitali 6,5 trillion so'mdan oshib ketdi. 2013 yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlarning umumiy hajmi 2012 yilga nisbatan 30,1 foiz ko'payib, bugungi kunda ularning miqdori 26,5 trillion so'mdan oshib ketdi.

Banklarning investitsiya maqsadlariga ajratilgan investitsion kreditlari miqdori ham 2012 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobar oshib, 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 7,2 trillion so'mdan oshiqroqni tashkil etdi.

Kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2012 yilga nisbatan 1,3 barobar oshib, 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 6,9 trillion so'mni tashkil etdi, mikrokreditlar hajmi 1,4 trillion so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkichning ham 2012 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobar oshishi ta'minlandi.

Bank depozitlari miqdori 2012 yilga nisbatan 30,2 foiz o'sib, bugungi kunda ularning miqdori 26,1 trillion so'mdan oshdi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda banklar tomonidan 10 milliondan ziyod plastik kartochka muomalaga chiqarilgan bo'lib, ularning qariyb 2,5 million donasi onlayn kartochkalardir. Savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlariga o'rnatilgan terminallar soni qariyb 130 mingtaga, to'lovlarni uzluksiz qabul qiluvchi infokiosklar soni 1733 taga etdi.

2009-2013 yillarda samarasiz ishlayotgan 172 ta korxonalar tijorat banklari balansiga o'tkazildi. Ularning 112 tasida ishlab chiqarish faoliyati tiklandi va yangi mulkdorlarga sotildi.

Banklar balansida qolgan korxonalarining 43 tasida esa ishlab chiqarish faoliyati tiklandi, yana 17 ta korxonada bu borada ish olib borilmoqda. Ana shu korxonalarda modernizatsiya va ishlab chiqarish faoliyatini tiklash jarayonlarini amalga oshirish uchun 316 milliard so'm hajmidagi investitsiya kiritildi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari o'z faoliyatida turli banklar bilan muomalada bo'ladi. Bu jarayon oldingilaridan farqli ravishda ancha murakkab hisoblanadi, chunki avvalgi

jarayonlar, asosan, korxonalar orqali bank o'z faoliyatini olib borganligi bilan xarakterlanadi. Tadbirkorlik faoliyati shakllanishi tufayli banklar xususiy mulk egalari va kichik korxonalar faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni bajarishga o'z mablag'larini safarbar etib boradi.

Tadbirkorlarning banklar bilan bo'ladigan operatsiyalarida ko'pgina erkinliklar berilganligi shunda namoyon bo'ladiki, xususiy tadbirkor o'z jamg'armasini O'zbekistonning turli banklaridagi o'z hisob schyotida saqlash, kredit va kassa operatsiyalarini bajarish huquqiga ega. Banklar bilan tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qilayotgan qonun va shartnomalarga asosan pul o'tkazish yo'li bilan hisob-kitoblar olib borish mumkin. Banklar tadbirkor schyotida pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa muhim ahamiyatga ega hujjatlarni saqlashni kafolatlab beradi. Banklar tadbirkorlar va mijozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda pul egasi tomonidan topshiriq qog'ozi bankka kelib tushishi bilan 12-13 soat davomida keyingi operatsiyalarni bajarishi zarur.

Mulk egalari hisobiga pul o'tkazish shaharda 4 ish kunida, viloyatda 5 ish kunida, respublika ichida 10 ish kunida bajarilishi lozim. Agar bu qonun shartlari buzilsa, mijozga yillik foiz miqdorida bank jarima to'laydi. Bank mijozlarning arizasiga binoan ularga tegishli operatsiyalarni bajaradi. Banklar tadbirkorlarni Respublika Markaziy banki tomonidan kiritilgan o'zgarishlar, qoidalar ayniqsa, hisoblar bo'yicha naqd pulsiz tarzidagi operatsiyalar bo'yicha o'zgarishlardan xabardor qiladi. Bank mijozga kechikib o'tkazgan operatsiyalari uchun, pulni noto'g'ri jo'natganligi uchun, aybdor sifatida, har bir kun uchun o'tkazilayotgan summaning 3 foizi miqdorida jarima to'laydi. Bankning aybi bilan hisob hujjatlari yo'qolsa, mijozga hujjatda ko'rsatilgan summaning har bir kuni uchun 3 foiz miqdorida jarima to'lanadi.

Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik korxonalarining hayoti va iqtisodiy faoliyati valyuta operatsiyalari bilan bog'liqligi ma'lum. Tadbirkorlik korxonalarini tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda ham milliy valyuta, ham xorij valyutasida operatsiyalarni bajarishiga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa, tashqi savdo jarayonlari bevosita valyuta operatsiyalari bilan bog'liq.

Valyuta operatsiyalari valyuta kursi bo'yicha ikki tomon valyutasi nisbati solishtirilgan holda amalga oshiriladi. Xalqaro maydonda AQSh dollari valyuta kotirovkasida baza sifatida qabul qilingan. Boshqa mamlakatlar valyutasi, kurs bo'yicha, AKSh dollariga qiyoslab boriladi. Dollar kursi abadiy bo'lmay, u ham o'zgarib turadi. Bu o'zgarish har kuni ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun banklar kursni bank faoliyat boshlash yoki yopilish vaqtidagi kurslar bo'yicha hisob-kitob ishlari olib boradi.<sup>29</sup>

Umuman, bozor iqtisodiyoti jahondagi rivojlangan mamlakatlarning muomaladagi valyutalarini mamlakat ichki bozorida harakatlanishi uchun huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Tadbirkorlar valyuta bilan bog'liq faoliyatlaridan samarali foydalanib, xorij valyutasiga yangi texnika va zamonaviy texnologiya xarid qilib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat sifatini oshirish, ishlab chiqarish sohasida sifatli tovarlar ishlab chiqarib, uni sotishdan katta foyda olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

### **3.2 Rivojlangan va MDH ga a'zo mamlakatlar bank amaliyotida resurslarni jalb etishning taqqoslama tahlili**

Rivojlangan va Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga (MDH) a'zo mamlakatlarning bank amaliyotida resurslarni jalb etish holatini taqqoslama tarzda o'rganish respublikamiz tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish yuzasidan chora-tadbirlar va tegishli siyosatni ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.

MDHga a'zo mamlakatlarda, shuningdek, respublikamiz banklari faoliyatida moliyaviy resurslarni shakllantirish, joylashtirish hamda ularni samarali boshqarish masalasi sobiq Ittifoq tuzimi barham topgandan keyin boshlangan bo'lib, shu davr ichida ushbu mamlakatlarda banklarning resurslarini boshqarish borasida ma'lum tajriba va usullar shakllandi.

---

<sup>29</sup> Меркулова И.В. Денги, кредит, банки: учебное пособие / И.В. Меркулова, А.Ю. Лукьянова. – М.: КНОРУС, 2010. – 352 с.

Biz MDH mamlakatlarning bank tizimida resurslarni boshqarish jarayonini tadqiq qilishda asosiy e'tiborni ushbu mamlakatlarda bank tizimining shakllanishida resurslarini boshqarish borasida orttirilgan tajribalar, mavjud muammolar va ularning o'ziga xos jihatlariga qaratamiz.

Ta'kidlash lozimki, MDHga a'zo mamlakatlarda tijorat banklari resurslarini boshqarish yuzasidan o'ziga xos andoza yoki usullar hozirgi kunga qadar yaratilmagan. Ya'ni, ushbu mamlakatlarda tijorat banklarining resurslarini boshqarish bilan bog'liq masalalar iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasidan kelib chiqayotgan dolzarb vazifalar bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda, yana ham aniqroq kilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklarining qisqa muddatga mo'ljallangan stixiyali strategiyasi tarzida amalga oshirilmoqda.

### 13 –jadval

#### Ayrim rivojlangan mamlakatlar kredit muassasalarining jalb qilingan mablag'larining tarkibi va dinamikasi (%da)

Ko'rsatkichlar	Yillar ( 1 yanvar holatiga)					
	2002	2003	2004	2005	2006	2007
Xitoy bank muassasalari						
Muddatsiz depozitlar	27,38	26,96	27,18	27,57	27,91	28,38
Jamg'arma depozitlar	41,71	32,55	34,53	35,47	32,39	32,39
Muddatli depozitlar	8,80	8,27	8,85	9,40	11,11	12,1
CHet el valyutasidagi depozitlar	0,00	6,12	5,02	4,49	4,15	3,94
Boshqa depozitlar	4,22	4,05	4,31	3,94	5,16	0,16
Qimmatli qog'ozlar	5,24	5,09	4,92	5,63	6,84	8,68
Xalqaro majburiyatlar	1,92	1,97	1,86	1,98	1,70	1,78
Markaziy bankning kreditlari	5,98	6,26	4,59	3,63	2,63	2,08
Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalardan olingan kreditlar	0,00	4,31	4,21	3,52	3,40	6,30
Banklarning kapitali	4,75	4,42	4,53	4,37	4,71	4,40
Jami:	100	100	100	100	100	100

AQSH bank muassasalari						
Muddatsiz depozitlar	6,72	6,09	6,06	5,91	5,04	3,97
Muddatli va jamg'arma depozitlar	64,7	64,7	62,89	60,02	60,66	59,61
Xalqaro majburiyatlar	9,49	10,01	12,41	14,20	14,64	17,59
Hukumatning depozitlari	0,70	0,69	0,48	0,25	0,29	0,23
Banklardan olingan kreditlar	0,54	0,42	0,37	0,23	0,28	0,20
Bank bulmagan moliyaviy muassasalardan olingan kreditlar	9,76	9,57	9,09	9,30	9,26	8,59
Banklarning kapitali	8,09	8,52	8,70	10,09	9,83	9,81
Jami:	100	100	100	100	100	100
Yaponiya bank muassasalari						
Muddatsiz depozitlar	26,05	34,33	35,72	37,09	38,80	37,34
Muddatli va jamg'arma depozitlar	43,78	39,37	38,46	37,70	36,19	43,16
Depozit sertifikatlari	3,38	2,28	2,19	2,42	2,45	0,00
Qimmatli qog'ozlar	5,44	4,62	3,80	3,36	3,09	0,00
Xalqaro majburiyatlar	8,32	8,35	7,18	7,59	7,77	9,07
Banklardan olingan kreditlar	4,41	4,48	3,69	5,07	5,82	1,17
Banklarning kapitali	8,62	6,57	8,96	6,77	5,88	9,26
Jami:	100	100	100	100	100	100

Vaholanki, tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalasi uzoq muddatga mo'ljallangan ma'lum strategiya va siyosat asosida amalga oshirishni talab etadi. Albatta, ushbu strategiya mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish borasida ishlab chiqilgan uzoq muddatli strategiyasi bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan tartibda yaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda iqtisodiy jihatdan rivojlangan Xitoy, AQSH va Yaponiya mamlakatlarning banklari resurslari manbalarining tarkibi va dinamikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan har uchala mamlakat banklarining resurslari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlar asosiy salmoqni tashkil etishi ko'rinib turibdi. Banklarning resurslari tarkibida muddatsiz depozitlarning salmog'iga e'tibor beradigan bo'lsak, 2002–2007 yillarda Xitoy banklarida

27,38–33,16 foiz, YAponiya banklarida 26,05–37,34 foiz va AQSH banklarida 6,72–3,97 foiz atrofida tebranib turgan. Bu holat bo'yicha shuni ta'kidlash lozimki, mazkur banklarning muddatli resurslari barqaror manbalardan shakllantirilgan bo'lib, keskin tebranishlardan holi bo'lgan.

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda MDHga kiruvchi davlatlar tijorat banklarining kredit siyosati mamlakat iqtisodini tezroq rivojlantirishga yo'naltirilgan. hozirgi vaqtda bu mustaqil davlatlarning banklari aksariyat hollarda ko'proq vositachilik operatsiyalarini o'tkazish uchun qisqa muddatli kreditlar bermoqdalar. Shu bilan birga biz bilamizki, kreditni uzoq muddatga investitsiya qilish bankka va jamiyatga katta foyda berishi mumkin.

MDHga kiruvchi davlatlarning tijorat banklari uchun lizing operatsiyalari yangi operatsiyalar turi hisoblanadi. Bu operatsiya turida banklar yoki lizing kompaniyalari ijaraga berilgan mulkning egasi bo'lib qolaveradilar.

Lizing operatsiyalarini o'tkazishning bank uchun foydali tomoni shundaki, odatda ijara uchun to'lov huddi shu muddatga beriladigan uzoq muddatli kreditlar foiz stavkasiga nisbatan yuqori bo'ladi.

Tijorat banklari resurslari tarkibida muddatsiz depozitlarning ulushini pastligi mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchining yuqoriligidan, shuningdek, mamlakatda inflyasiya darajasining pastligidan va muddatli depozitlar hisobidan barqaror daromad topish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Ayniqsa, tahlil etilgan davr mobaynida AQSH tijorat banklarida muddatsiz depozitlarning ulushi juda past darajaga ega bo'lgan. Bu tahlil etilgan davrda AQSH banklarining yuqori likvidli darajaga ega ekanligini anglatadi.

AQSHda tijorat banklari faoliyatini Federal zaxira tizimi (FZT) tartibga solib turadi. Bundan tashqari, AQSHda FZTga a'zo bo'lmagan, ya'ni federal hukumatning qonunlari asosida faoliyat yuritadigan tijorat banklari mavjud bo'lib, ushbu banklar shtat banklari deb yuritiladi. AQSHda 1987 yilda jami 15220 tijorat banklari mavjud bo'lgan bo'lsa, ularning 6000 tasi FZT tarkibiga a'zo sifatida kirgan. FZTga kirish uchun tijorat banklarining joylashgan joyi,

hududning iqtisodiy salohiyati va ahamiyatiga qarab ustav kapitalining minimal darajasi 50, 100 va 200 ming AQSH dollarni tashkil etish talab etiladi.

Yaponiya tijorat banklarining faoliyatini tartibga solishning o'ziga xos xususiyati shundaki, mamlakatda bank tizimi asosan, Moliya vazirligi tomonidan boshqariladi. Moliya vazirligi 1998 yil 1 apreldan boshlab tijorat banklari kapitalining minimal etarlilik koeffitsientini 4 foiz etib o'rnatdi<sup>30</sup>. Ushbu talab bajarilmagan holda Moliya vazirligi tijorat banklarining operatsiyalarni bajarishini to'xtatib qo'ydi. Tijorat banklari kapitaliga qo'yilgan minimal talabni bajarishni aktiv operatsiyalar hajmini pasaytirish hisobiga erishdilar, buning natijasida mamlakatdagi yirik korxonalarining kreditga bo'lgan talabi qondirilmasligi oqibatida inqirozga uchraganlik holatlari vujudga keldi.

Yaponiya banklarining jalb qilingan mablag'lari tarkibida bank kapitalining salmog'i tahlil etilayotgan davrda (2002–07 yillar) 8,62–9,26 foizni tashkil etgan (2.5.1.–jadval). Ushbu ko'rsatkich, ya'ni tijorat banklari resurslari tarkibida banklarning kapitali Xitoyda 4,75–4,40 foizni tashkil etgan, AQSHda 8,09–9,81 foizdan iborat bo'lgan.

Bu holatni respublikamiz tijorat banklari resurslari tarkibida banklar kapitalining miqdoriga taqqoslaydigan bo'lsak, 2003–2007 yillarda 17,9–16,3 foizdan iborat bo'lgan. Mazkur holat respublikamiz tijorat banklarining resurslari tarkibida bank kapitali ulushining hajmi rivojlangan mamlakatlarning banklari kapitalining miqdoridan yuqoriligi bilan izohlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamiz tijorat banklari kapitali tarkibida zaxira kapitali nibatan yuqori ulushni tashkil etadi.

Masalan, respublikamiz tijorat banklari kapitali tarkibida zaxira kapitalining ulushi 2007 yil 1 yanvar holatiga 70,0 foizni tashkil etgan. Masalaga yana ham chuqurroq yondoshadigan bo'lsak, respublikamizning yirik tijorat banklari hisoblangan Asaka bankning ustav kapitali 2000 yil 5475,0 mln so'mni tashkil etgani holda ushbu ko'rsatkich 2007 yilda ham o'zgarishsiz

---

<sup>30</sup> В.В.Масленников. Зарубежные банковские системы. –М.: «Элит–2000», 2001. С.326.

qolgan, ya'ni uning ustav kapitalining miqdori absolyut summada ko'paytirilmagan. Kapitalning hetarliligi asosan, zaxira kapitalining, zaxira kapitali esa devalvatsiya zaxirasining ortishi hisobiga ta'minlanmoqda. Uning jami kapitali tarkibida zaxira kapitali 2000 yilda 62,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2007 yil 1 yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 91,9 foizga etgan. Aynan shu kabi holatni TIF Milliy banki amaliyotida ham kuzatishimiz mumkin. Respublikamiz tijorat banklari resurslari tarkibida banklarning ustav kapitalining miqdori 2007 yil 1 yanvar holatiga 3,0 foizga yaqin bo'lgan.

Nazarimizda, tijorat banklari resurslari tarkibida moliyaviy barqaror manba hisoblangan ustav kapitalining salmog'ini pasayishiga yo'l qo'maslik zarur. Mazkur masala monografiyaning III bobida atroflicha tahlil etiladi.

Quyidagi jadvalda MDHga a'zo mamlakatlar Qozog'iston, Rossiya va Ukraina bank muassasalarining jalb qilingan mablag'larining tarkibi va dinamikasini ko'rib chiqamiz.

Jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, MDHga a'zo mamlakatlarning resurslari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlarning ulushi rivojlangan mamlakatlarnikiga nisbatan pastroq. Lekin ta'kidlash lozimki, tahlil ob'ekti sifatida o'rganilayotgan Rossiya va Ukraina mamlakatlari banklarining resurslari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlarning salmog'i ortib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. Masalan, 2000–2007 yillarda muddatli va jamg'arma depozitlarning miqdori mos ravishda Rossiyada 30,76–36,54 foiz, Ukrainada 37,53–44,97 foiz atrofida tebranib turgan. Agar mamlakatimiz tijorat banklari jami resurslari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlarining ulushiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkich nisbatan past darajada bo'lganligini guvohi bo'lamiz (2000–2007 yillarda 10–16 foizdan iborat bo'lgan).

E'tiborli jihati shundaki, MDHga a'zo mamlakatlar banklarining kapitali rivojlangan banklar kapitalining miqdoriga nisbatan ancha yuqori. Bizning nazarimizda, MDHga a'zo mamlakatlar, shu jumladan respublikamiz banklari kapitalining darajasini yuqori salmoqqa ega ekanligini ularning kapitalini

tarkibida xorijiy valyutada kiritilgan mablagʻlarning devalvatsiyasi bilan izohlash mumkin.

**14–jadval**

**Ayrim MDH mamlakatlari kredit muassasalarining  
jalb qilingan mablagʻlarining tarkibi va dinamikasi (%da)**

Koʻrsatkichlar	Yillar ( 1 yanvar holatiga)					
	2002	2003	2004	2005	2006	2007
Qozogʻiston bank muassasalari						
Muddatsiz depozitlar	17,63	19,59	10,46	11,10	8,50	7,64
Muddatli va jamgʻarma depozitlar	37,98	33,19	34,18	30,93	27,9	27,63
Bozor instrumentlari	0,21	0,60	m/y	m/y	m/y	m/y
Muzlatilgan depozitlar	2,50	3,66	m/y	m/y	m/y	m/y
Xalqaro majburiyatlar	18,98	24,88	34,70	37,14	44,99	46,57
Hukumatning depozitlari	1,89	1,58	0,36	0,15	0,06	0,02
Banklardan olingan kreditlar	0,24	0,48	0,56	1,49	0,34	0,10
Nobank muassasalardan kreditlar.	0,00	0,00	4,03	3,97	3,89	4,39
Banklarning kapitali	20,57	16,02	15,71	15,22	14,32	13,65
Jami:	100	100	100	100	100	100
Rossiya bank muassasalari						
Muddatsiz depozitlar	19,10	18,39	19,71	19,18	21,20	22,13
Muddatli va jamgarma depozitlar	36,62	38,98	36,47	40,55	37,54	32,85
Bozor instrumentlari	8,59	10,40	10,72	8,01	6,81	5,99
Muzlatilgan depozitlar	2,53	1,14	0,60	0,54	0,38	0,02
Halqaro majburiyatlar	11,14	10,66	13,40	13,40	16,89	21,88
Hukumatning depozitlari	2,39	1,77	1,66	2,13	2,22	3,19
Nobank muassasalardan kreditlar.	8,17	5,88	3,95	2,70	0,34	0,36
Banklarning kapitali	11,46	12,78	13,49	13,49	14,62	13,58
Jami:	100	100	100	100	100	100

Ukraina bank muassasalari						
Muddatsiz depozitlar	25,30	24,97	22,59	20,35	19,61	15,89
Muddatli va jamg'arma depozitlar	39,01	42,66	47,75	47,91	50,01	44,71
Bozor instrumentlari	1,40	0,99	0,66	0,18	0,47	0,55
Muzlatilgan depozitlar	1,33	1,86	0,50	0,98	0,88	0,47
Xalqaro majburiyatlar	8,47	7,79	10,37	9,84	13,57	21,40
Hukumatning depozitlari	2,42	1,31	0,86	0,77	0,59	0,75
Banklardan olingan kreditlar	2,77	2,36	2,69	3,36	0,39	0,48
Nobank muassasalardan kreditlar.	0,00	0,00	0,00	0,25	0,11	0,11
Banklarning kapitali	19,30	18,06	14,58	16,36	14,37	15,64
Jami:	100	100	100	100	100	100

Qozog'iston, Rossiya va Ukraina banklari moliyaviy resurslari tarkibida xalqaro banklarning kreditlari va Vostro hisobraqamlaridagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari salmoqli ulush egallagan. Ta'kidlash lozimki, tijorat banklari uchun ushbu mablag'lar barqaror moliyaviy resurslarni shakllantirish manbasi sifatida xizmat qilmoqda. Respublikamiz tijorat banklarida esa aynan mana shu manbani shakllantirish masalasi muammo sifatida qolmoqda. Chunki tijorat banklari xorijiy banklardan to'g'ridan-to'g'ri kreditlarni jalb qilish borasida ijobiy natijaga erishmayapti, shu bilan birga xorijiy banklar respublikamizning tijorat banklarida o'zlarining Vostro vakillik hisobvaraqlarini ochishmagan.

Olib borilgan tahlillar va o'rganishlarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, respublikamiz tijorat banklari aynan mana shu ikkita masalani hal etish orqali katta miqdorda moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyatiga ega. Masalan, qo'shni Qozog'iston banklarining resurs bazasini shakllantirishda xorijiy banklarning kreditlari hisobidan banklarning kredit portfelini har yili 80 foizga

ortishiga erishilgan, banklar tomonidan jalb qilingan kreditlarning hajmi 2004 yilda 8 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 20 milliard dollardan iborat bo'lgan<sup>31</sup>.

Xalqaro valyuta fondi ekspertlarining fikrlariga ko'ra respublikamiz tijorat banklari kredit portfelining hajmi asosan, milliy valyuta hisobiga ortib bormoqda, monetizatsiya koeffitsienti past, muomaladagi naqd pullarning o'sish sur'ati depozitlarning o'sish darajasiga nisbatan yuqori, bank kreditlarining hajmi mamlakat JIMga nisbatan pasayish tendensiyasiga ega. Inflyasiya darajasi turli baholar indeksi orqali aniqlangani holda 2005 yilda yuqoriligicha qoldi. Olib borilgan qattiq pul–kredit siyosati natijasida 2006 yilda uni pasaytirishga erishildi, baribir inflyasiya darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Keyingi ikki yilda yuqori inflyasiya natijasida milliy valyutaning real ayirboshlash kursi sezilarli darajada pasaygan<sup>32</sup>.

Bizning nazarimizda, mazkur holatlarni ijobiy echimini ta'minlash maqsadida quyidagilarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq:

–tijorat banklarining xalqaro reyting darajasini ko'tarib, xalqaro bank kreditlarini jalb etish va mahalliy banklarda xorijiy banklarning Vostro vakillik hisobvaraqlarini ochish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarining miqdorini oshirish lozim;

–monetizatsiya koeffitsientini hisoblashda JIMning real ko'rsatkichlariga tayanish va bankdan tashqari aylanmalarning to'liq hisobini olishga erishish lozim;

–aholining bank tizimiga ishonchini oshirish orqali, bankdan tashqari aylanmalarni muddatli depozitlarga jalb etib, milliy valyutaning sotib olish qobiliyatini mustahkamlash va JIMga nisbatan kreditlar hajmining ortishiga erishish lozim.

Quyidagi jadvalda AQSH va Qozog'istonning asosiy iqtisodiy

---

<sup>31</sup> Аасим М.Хусайин. Закрепление макроэкономических успехов Казахстана. МВФ, 2006. internet: <http://www.imf.org>

<sup>32</sup> IMF Executive Board Concluded 2006 Article IV Consultation with the Republic of Uzbekistan. Public Information Notice (PIN) No.07/37. March 23, 2007. internet: <http://www.imf.org>

ko'rsatkichlarining JIMga nisbati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tijorat banklarining faoliyatiga makroiqtisodiy darajada baho berganda, ularning aktiv operatsiyalari hajmining JIMga nisbati e'tiborga olinadi. Tahlil ob'ekti sifatida ko'rilayotgan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich oshib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. Respublikamiz banklarining aktivlarini mamlakat JIMga nisbati ko'radigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkich 2006 yilda 40 foizni tashkil etgan. Buning asosiy sabablaridan biri, fikrimizcha, tijorat banklarining etarli ravishda resurslarga ega emasligi, shuningdek, mavjud imkoniyatlardan to'liq'icha foydalanmayotganligidadir.

Rivojlangan va MDH mamlakatlar bank amaliyotida resurslarni jalb etishning taqqoslama tahlili natijasida respublikamiz tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish yuzasidan quyidagi asosiy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik:

–tahlil ob'ekti sifatida o'rganilgan rivojlangan va MDHga a'zo mamlakatlarning banklari resurslari tarkibidagi muddatli va jamg'arma depozitlari darajasini O'zbekiston tijorat banklariga solishtirib tahlil etganimizda respublikamiz banklarida ushbu miqdor ularga nisbatan past ekanligi ma'lum bo'ldi.

–tijorat banklarining xalqaro reyting darajasini ko'tarish orqali ularga xalqaro bank kreditlarini jalb etish va mahalliy banklarda xorijiy banklarning Vostro vakillik hisobvaraqaqlarini ochish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarining miqdorini oshirish lozim;

–monetizatsiya koeffitsientini hisoblashda JIMning real ko'rsatkichlariga tayanish va bankdan tashqari aylanmalarning to'liq hisobini olishga erishish lozim.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro bank amaliyotda resurslarni jalb qilishning bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan usullari mazkur mamlakat iqtisodiy o'sish va milliy valyutaning barqarorligini mustahkamlashga imkoniyat bermoqda, ularning ijobiy jihatlarni respublikamiz bank amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

## Xulosa

Tijorat banklari resurslarining tushunchasi va ularning manbalarini nazariy jihatlarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- tijorat banklari resurslari moliyaviy resurslarga nisbatan ikkilamchi bo'lib, uning mohiyati iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan keng miqyosda tadqiq qilinmagan;

- tijorat banklari resurslari bankning passiv operatsiyalari asosida shakllantirilib, ularning asosiy to'rtta shakli mavjud;

- bank resurslarini jalb etishda bankning depozit operatsiyalari muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti banklarning depozit operatsiyalari ko'lamini, ayniqsa, muddatli depozitlari hajmini keskin oshirishni talab etmoqda;

- banklarning resurslarni shakllantirishda banklararo pul resurslari bozorida etarli ravishda foydalanmayapti, ular o'rtasidagi bitimlarning asosiy qismi o'zaro kelishuvlar tarzida amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy bosqichda bank resurslarining manbalari juda ko'pqirrali bo'lib, mamlakatda moliya bozorlarining keng ko'lamda ishlashining ta'minlanishi ulardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv schetidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslarini tashkil qiladi.

Mobilizatsiyalashgan pul mablag'larini banklar mijozlarni kreditlash uchun va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladi. Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi. Bankning aktiv operatsiyalarida asosiy o'rinni ularning kredit yoki ssuda

operatsiyalari egallaydi. Akseptli operatsiyada bank o'zi akseptlashtirayotgan vekselni ishonchli mijozga chiqarish huquqini beradi. Ya'ni berilgan veksel bo'yicha o'z hisobidan to'lovini kafolatlaydi. Shunday aksept kreditdan foydalanayotgan mijoz veksel haqini to'lash uchun tegishli summani bankka to'lash majburiyatini oladi.

Shubhali kreditlar. Bu kreditlar yuqorida keltirilgan guruhlardagi kreditlarning barcha salbiy tomonlarini o'zida ifoda qilishi bilan birgalikda to'liq ta'minlanganlikka ega bo'lmagan, to'lanish ehtimoli kam bo'lgan kreditlar kiradi.

Ishonchsiz kreditlar. Bu kreditlar bo'yicha qarzlarning to'lanish ehtimoli deyarli yo'q. Agar kredit to'liq ta'minlamagan bo'lsa, eng kamida bitta muammoli tavsifga ega bo'lsa, to'lov muddati 360 kundan oshgan bo'lsa hamda kreditni "shubhali" deb tasniflab bo'lmasa bunday aktivlar "ishonchsiz" deb hisoblanadi. Bu aktivlar juda past qiymatga ega bo'lib, ularni aktivlar sifatida hisobga olib borish kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezident asarlari va risolalari**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tug‘risida»gi qonun. - T.: O‘zbekiston, 1995.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati tug‘risida»gi qonun. - T.: O‘zbekiston, 1996.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish tug‘risida»gi qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2003.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2010 y. PQ-1438 –son «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi qarori. // Xalq so‘zi, 2010 yil 27 noyabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.04.2010 y. PQ-1325-son «Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori // Xalq so‘zi, 2010 yil 20 aprel.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor

korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida. 2008 yil 19 noyabr, F-4010-son.

10. O'zbekiston Respublikasida Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 15 aprelda 1122-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida NIZOM".

11. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 12 avgustdagi "Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. (2007 yildagi o'zg.tahririda).

12. Karimov. O'zbekiston Respublikasi Kongsitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi Prezident Islom Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir" ma'ruzasi. Xalq so'zi, 07.12.2010

13. I. Karimov. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" – 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

14. I.A. Karimov. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" ma'ruzasi// Xalq so'zi gazetasi, 12.11.2010.

15. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2013 yil, 19-yanvar, №

## II.Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

1. Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G‘afurov U.V. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua – Toshkent: Iqtisodiyot.- 2010. 162 b.
2. Bekmurodov A.Sh., Qosimova M.S. Safarov B.J., Musayeva Sh. Marketingni boshqarish. O`quv qo`llanma. – T.: TDIU, 2007, 160-b.
3. Dadaboyev Q.A. Logistika.O`quv qo`llanma.–T.:IQTISODIYOT-MOLIYA.2007.-236 b.
4. Qosimova M.S., Ergashxodjaeva Sh.J., Abduhalilova L.T. Muhitdinova U.S., Yo`ldoshev M.M. Strategik marketing. O`quv qo`llanma. 2004.-161 b.
5. Jalolov J.J., Fattaxov A.A. Biznes marketingi. Darslik. –T.: Moliya, 2006, -355 b.
6. Kotler Filipp. Osnovi marketinga. Kratkiy kurs.: Per. s angl.-M.: Izdatelskiy dom. «Vilyams», 2008. -656 s.
7. Efimenko I.B., Plotnikov A.N. Ekonomika otrasli (stroitelstvo): ucheb. posob. – M.: Vuzovskiy uchebник, 2009. – 359 s.
8. Zotova.T.A. Povedenie potrebiteley. Teoriya i praktika. - Rostov n g‘ D; Feniks, 2008. - 222 s.
9. Lukina A.V.Marketing tovarov i uslug: ucheb.pos. - M.:FORUM,2008.- 240s.
10. Mak-Donald M. Sfera uslug. Polnoe poshagovoe rukovodstvo po marketingovomu planirovaniyu. – M.: Eksmo, 2009. – 448 s.
11. Maliy biznes: Uchebnoe posobie / kol. Avtorov; pod red. V.YA. Gorfinkelya.- M.: KNORUS,2009.- 336 s.
12. Ryabix D., Zaxarova E. Biznes - planirovanie na kompyutere.

13. O‘zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo‘lida. Ekspress-prospekt. (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G‘afurov U.V. va Ne‘matov I.U.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 5 b.

14. O‘zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo‘lida. (Bekmurodov A.Sh., G‘afurov U.V.) T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b.

### III. interet saytlari

1. [www.press-centr.uz](http://www.press-centr.uz)
2. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
3. [mister.shax@mail.ru](mailto:mister.shax@mail.ru)
4. [www.dis.ru](http://www.dis.ru) Mender. Daind/
5. [DT “Xalq bank” yillik hisobotlari. 2002-2014 y.](#)
6. [www.bankir.uz](http://www.bankir.uz) – Bankir.uz bank faoliyatiga oid axborot-resurslar sayti.
7. [www.bankir.ru](http://www.bankir.ru) - Bankir.Ru axborot agentligi sayti.
8. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.
9. [www.bfa.uz](http://www.bfa.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi sayti.